

**O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

**“Kostyum dizayni” kafedrası**

**“Dizayn tarixi” fani bo'yicha 5150900 - “Dizayn” (kostyum) yo'nalishi  
bo'yicha bakalavrlar uchun**

**LEKSIYALAR KURSI**



**Toshkent – 2019**

## Annotatsiya

“Dizayn tarixi” fanidan 5150900 - “Dizayn” (kostyum) yo’nalishi bo’yicha bakalavriatura yonalishlari bo’yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan.

Tuzilgan ushbu leksiyalar kursi o’quv rejasiga asoslanib tuzilgan.

Leksiyalar kursida dizayn tarixining asosiy bosqichlari yoritilgan: qadimiy, o’rta asrlar, kech o’rta asrlar, XIX-XX asr va zamonaviy dizaynni rivojlanishi ko’rsatilgan kabi mavzularni qamrab olgan.

Leksiyalar kursi “Kostyum dizayni” yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar va boshqa dizayn sohasidagi mutaxassislar uchun mo’ljallangan.

Tuzuvchi: TTESI, “Kostyum dizayni” kafedrası (PhD) katta o’qituvchisi  
A.B.Kasimova

Taqrizchilar: TTESI “Kostyum dizayni” kafedrası f.f.n.dots. U.Raxmatullaeva  
TAQI “Landshaft dizayni va inter’er” kafedrası professori  
M.R.Borodina

“Dizayn tarixi” fani bo’yicha leksiyalar kursi “Kostyum dizayni” kafedrası majlisida muhokama etilgan va chop etilishga tavsiya etilgan.

Bayon № \_\_\_\_\_ “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019

“Dizayn tarixi” fani bo’yicha leksiyalar kursi TTESI o’quv-uslubiy kengashida ko’rib chiqilgan va chop etilishga tavsiya etilgan.

Bayon № \_\_\_\_\_ “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019

### 1- mavzu: Texnikani buyuk ihtirolar va kashfiyotlari tarixidan.

#### Reja

#### 1. Kirish. "Dizayn tarixi" fanining maqsad va vazifalari

2. Texnik tsivilizatsiyani boshlanish davri. Mexnat qilish uchun qurollar va asbob uskunalar.
3. Dastani kashfiyot etish.
4. Kamon va uqni kashfiyot etish.
5. G'ildirak va aravani kashfiyot etish.
6. To'qish.
7. Mexnat taqsimoti. Xunarmandchilikni ajralishi.

#### 1. Kirish. "Dizayn tarixi" fanining maqsad va vazifalari

Fanning maqsadi – kostyum dizayni ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga insoniyatning muhim ihtirolari bo'yicha ma'lumot berish bilan birga, mamlakatimiz va jaxonning rivojlangan mamlakatlari sanoatida badiiy loyihalash tarixi, yo'nalishlarini o'rgatish bilan birga olingan bilim va ko'nikmalar asosida mustaqil tahliliy fikr yurita olisni orgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga turli davr va makonlarda dizaynning rivojlanishini belgilovci faktorlarni tusuntirish, sanoat dizaynining jamiatdagi iqtisodiy, madaniy hayot bilan bog'liqligini yoritish, olingan bilimlarni kostyum dizaynini yaratish uchun qo'llay olish, dizayner nuqtai nazaridan dizayn mahsulotlariga tahliliy munosabat berish bilim va ko'nikmalarini Shakllantirish.

*Dizayn" tushunchasi.* "Dizayn" so'zini ingliz tilidan tarjima qilganimizda "fikir", "loyiha", "bezak" kabi ma'nolarni anglatadi. Ko'p yillar mobaynida tadqiqotchilar uni "sanoat estetikasi" deb nomlaganlar. Tor ma'noda esa, professional nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yuqori darajadagi iste'molga mo'ljallangan, estetik sifatlarga ega bo'lgan hamda inson hayoti uchun qulaylik yaratadigan buyum va narsalar muhitini, turar joy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-madaniy sohalarni tashkil etuvchi badiiy loyihalash faoliyati demakdir.<sup>1</sup>

Dizayn bugungi kunda bir qator fan tarmoqlarini kompleks jamlagan badiiy loyihalash faoliyati bo'lib, o'z tarkibida tabiiy fanlar, texnikaviy, gumanitar bilimlarni, muhandislik va san'atni bir-biri bilan bog'lovchi insonning barcha hayotiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan narsalar dunyosini sanoat asosida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan juda keng qamrovli faoliyat hisoblanadi. Uning markaziy va muhim masalasi inson madaniy estetik talablariga munosib narsa-buyumlar dunyosini yaratishdan iboratdir. Shu bois ham, dizayner uchun eng muhimi bir qator texnik muhandislik, tabiiy fanlar sohasidagi bilimlarni qo'llash bilan birgalikda gumanitar fanlarning bilim manbalari – falsafa, madaniyatShunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fan sohalaridan unumli foydalanish hisoblanadi. Mana Shu bilimlar narsa va buyumlar olamini badiiy loyihalash jarayonida o'zaro uyg'unlashib ketadi.

<sup>1</sup>Gavin Ambrose. Design Thinking . Copyright © AVA Publishing SA .2010. Canada.10-11b.

Umuman olganda, sanoat estetikasi dizayn fani sifatida rivojlandi hamda alohida sohaga aylandi.<sup>2</sup>

*Dizayn ob'ektlari.* Har qanday narsa yoki buyum, narsalar majmui, ularni o'rab turgan predmetlar makoniy muhiti, dizayn sohasidagi xizmatlar, dizayn ob'ektidir. XXI asrning boshlarida insonni o'rab turgan barcha yashash sharoitlari, muhiti va usuli sanoat dizaynining ob'ekti sanaladi. Ammo tarixiy jarayon bosqichlarida asosan buyum dizayn ob'ekti sifatida yuzaga chiqqan.

Dizaynerlik faoliyati juda keng qamrovli loyihalash ob'ektlarini o'z ichiga oladi. Bizning zamonamizda dizaynning yuzlab turlari mavjud, ammo ularning barchasi asosan quyidagi dizaynning besh turidan kelib chiqadi.

1. Sanoat dizayni.
2. Muhit dizayni.
3. Veb-dizayn.
4. Grafik dizayn.
5. Jarayonlar dizayni.

Mana Shu besh turning har biri dizaynerning bilimi va mahorati, tajribalaridan kelib chiqqan holda, yana ko'plab turlarga bo'linadi. Dizaynning o'zini daraxtga qiyoslasak, uning shoxlari, yaproqlari, hatto kurtaklari ham dizaynerlar fantaziyasi tufayli Yangi turlarga aylanadi.

*1. Texnik sivilizatsiyani boshida. Ishlash uchun birinchi qurol va mexanizmlar.* Arxeologlarni ma'lumotlari bo'yicha inson yasagan birinchi ishlash uchun qurollarni yoshi 2,9 mil. yil. Birinchi qurollarni odamlar toshdan, vulqonni shishasidan, suyak va yog'ochdan ishlashgan. Xom ashyo sifatida achchiq toshni ishlatishgan. Bu qurollar yordamida o'simlikni maydalashgan, yong'oqni sindirishgan, pustloq va terini tozalashgan. Shunday chopadigan qurol odamni birinchi kashfiyoti bo'lgan deb hisoblasa bo'ladi.

*2. Dastani kashfiyot etish.* Vaqt o'tgan sari odam har xil chopadigan qurollarni ishlashni o'rgangandi, so'ng bir necha qismdan iborat har xil funktsiyani bajaradigan qurollarni qilishni o'rgangandi: toshdan bolta va ketmon (mil. av. 3–4 ming yil, neolit); keynroq –nayza.

*3. Kamon va o'qni kashfiyot etish.* Odamzodni genial ihtirosi –kamon, o'q va kamlak ipi bo'lgan. Bular texnikaviy murakkab qurol bo'lgan, chunki bu aql qobiliyati va texnikaviy tajribani talab qilardi. Miloddan avval 12–7 ming yy. mezolitda paydo bo'lib, bu qurol XVII asrgacha asosiy qurol bo'lgan. Yangi materiallar va texnologiyalar paydo bo'lgani sababli kamon va boshqa qurollarni Shakli ming yillar maboynida o'zgargan.

Texnikaviy tsivilizatsiyani boshida odamzod ancha buyuk kashfiyotlar qilgan: qayiq va eshkak (mil.av. 1000 y.) (birinchi transport vositasi), parmalash (sverlenie), toshni arralash va silliqlash (mil.av. 6000 y), dehqonchilik.

*4. G'ildirak va arava.* Ilk bor g'ildraq sifatida xoda bo'lgan. Uni yordamida og'ir narsalarni bir joydan boshqa joyga surishgan. So'ng xodani o'rtasini kuydirib, ingichkaroq qilishgandi, so'ng o'rtasida g'ildirakni o'qi va spitsasi qilingan va b.

---

<sup>2</sup>А.Н.Лаврентьев. История дизайна. – М.: Гардарики, 2007. 6-7 б. Mazmunmohiyatidanfoydalanildi.

G'ildirakni kashfiyot etilgani texnika rivojini tubdan o'zgartirdi: arava, tegirmon, charxpalak, qulolchilik charhi.

5. *To'qish.* Matoni to'qilishi odamni tashqi ko'rinishini va turmush tarzini keskin o'zgartirdi. Xayvon terilarni o'rniga zig'ir, jun va ip gazlamalardan qulay kiyimlar paydo bo'ldi. Arxeologlar 25–26 ming yil bundan oldin to'qilgan gazlamalarni topgan.

Miloddan avval 5–3 ming yy. odam ishlagan gazlamalar va qulolchilik buyumlari topilgan. Neolit davrida (mil. av. 3000 y.) odamlar ishlash uchun misdan qo'rol qilishni o'rganishgan. Metallarni qorishmasini ishlashga qo'lolchilik uchog'ni kashfiyoti imkon berdi (mis bilan qalay – bronza). Bronzadan bolta, pichoq, uroq, tesha, nayza, uq, qilichlar va b. qurollar ishlangandi. Undan tashqari bronzadan bezaklar, haykallar, maishiy buyumlar qilinardi. Temirni ihtiroy etilishi toshdan qilingan qurolarni siqib chiqardi va texnika tarixida inqilob rolini o'ynadi.

6. *Mexnat taqsimoti. Xunarmandchilikni ajralishi.* Ilk bor mehnat taqsimotini ibtidoiy tuzimida bo'lgan: dehqonchilik va charvadorchilik.

Kechroq, quldorchilik tuzimida dehqonchilik, xunarmand klassi, savdo faoliyati paydo bo'ldi. Xunarmandchilik va savdo shaxarlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Savdogarlarni faoliyati yullarni takomillashtirishga, tangalarni zarb qilinishiga olib keldi.

Hizmatchilarni ixtisoslashganligi Yangi kashfiyotlarni paydo bo'lishiga imkon berdi. Bular omoch, tegirmon, uzum va zaytun uchun presslar, og'irlikni kutaradigan mexanizmlarni, temirga issiqlik yordamida ishlov berish, qaylash, metallni shtampovka va unga kimyoviy ishlashni berish, mexanizmlarni rivojlanishi va achitigan xamirdan non qilishga imkon berdi.

Mexnatni taqsimlanishi quldorlik davrda fanni rivojlanishiga imkoniyat berdi va Arximed, Geron Aleksandriyskiy, Aristotel, Evklid kabi ihtiroychilar va nazariyachilarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Urushlar mahsus xarbiy qurollarni talab qilardi va shaxarlarni himoya qilish uchun mahsus qurilmalarni ihtiroy etilishiga sabab bo'ldi.

Shuning uchun olimlar va ihtiroychilarni diqqatida xarbiy qurolni yaratish asosiy vazifa bo'lgandi. So'ng bu kashfiyotlar boshqa sohalarda qo'llandi.



### Nazorat savollari:

1. Texnik tsivilizatsiyani boshlanish davri. Mexnat qilish uchun qurollar va asbob uskunalara qanday bo'lgan?
2. Dastani kashfiyot etishni roli qanday?
3. Kamon va uqni kashfiyot etishni roli qanday?
4. G'ildirak va aravani kashfiyot etishni roli qanday?
5. To'qish libsni o'zgarishiga olib kegenligi.
6. Mexnat taqsimotini roli qanday?

## 2- mavzu: O'rta asr xunarmandchilik.

### Reja:

1. Kitobni chop etish, qog'ozni ixtiro etilishi.
2. Kompas va ko'zoynakni ixtiro etilishi.
3. Xunarmandlarni tsex birlashmalari.
4. Manufaktura.
5. Soat va tegirmonni ixtiro etilishi.

O'rta asrlarda buyuk ixtiro va kashfiyotlar tsivilizatsiyasni rivojlanishiga Yangi turtki bo'ldi.

Portlavchi modda-poroxni kashfiyoti harbiy ishda o'q otadigan qurolni Evropada paydo bo'lishiga sabab bo'ldi (XUI a.). Bu faqat harbiy ishda haqiqiy inqilob bo'lmasdan, balki shaxarlarni planirovkasini va tashqi ko'rinishini o'zgartirdi.

G'ildirakli omochni dehqonchilikda paydo bo'lishi SHimoliy Evropada misli ko'rmagan umumiy iqtisodiy yuksaklashiga va madaniyatni ravnaq topishiga sabab bo'ldi. O'yg'onish davr mutaffakirlarni loyihalari va texnikaviy kashfiyotlari hozirgi tabiatshunoslikka asos bo'ldi. XVII asr tabiatshunoslik va aniq fanlarni gurkirab rivojlanishi bilan nishonlandi. Tabiatshunoslar va faylasuflar dunyoni Yangi ko'rinishini yaratishdi, Yangi davrni Evropa ilmiy-texnikaviy inqilobni asosi bo'ldi. Bekon, Dekart, Gobs va b. frantsuz mutafakirlarni faylasuf tizimlari fan yutuqlarni amaliy qo'llanishiga yo'naltirgandi. "Bilim - kuch" shiori asr aksi bo'ldi.

1. *Kitobni chop etish, qog'ozni ixtiro etilishi.* Kitobni chop etish va yozma yodgorliklari g'ildirak ixtirosi bilan baravar deb etish mumkin. Bu o'rta asr texnikasi, fanni va madaniyatini rivojida muhim rol o'ynadi, chunki xalqlar yig'gan bilimlar bilan xamma foydalanishi mumkin edi.

Kitobni chop etilishiga qog'ozni ixtiro etilishi sabab bo'ldi. Qog'ozni Xitoyda (II asr) Chay Lun ixtiro etgan. So'ng O'rta Osiyo, Koreya, Yaponiya, Indiya va boshqa sharq mamlakatlarida qog'ozni ishlab chiqaradigan bo'ldi. Evropada qog'oz XI-XII aa. paydo bo'lgan. V avval qo'llangan pergamentni o'rniga keldi.

Birinchi kitoblar VI asrda Yaponiya va Xitoyda paydo bo'lgan. Yog'och, loy va fil suyagida ieroglif yoki rasmlar uyilardi, so'ng ular tush bilan bo'yalardi. Shunday plastinka qog'ozga bosilganda, izi qolardi. XI asrda Xitoyda literal xarf yoki so'zlar kashfiyot etildi.

G'arbiy Evropada XIV asr ohirida –XV asr boshida litera yordamida kitobni chop etishni nemis Iogan Gutenberg kashf etdi.

Kitobni chop etish uchun mahsus dastgohlar yaratilgandi.

2. *Ko'z oynak va kompasni kashf etilishi. Dengizda kemalarni yurishi.* Ilk bor ko'z oynaklar XIII asrda Italiyada paydo bo'lgan. Ko'z oynak ixtirochisi Florentsiyalik Skalvino Armati (1285 y.) oyna ustasi bo'lgan. XIV-XV aa. oynani silliqlash ishi Gollandiyada rivojlangandi. Ko'z oynakni ishlab chiqarilishi mikroskop, durbin va optikani nazariyasi asoslarini ixtiro etilishiga sabab bo'ldi.

Qadimiy Xitoyda magnetizm xodisasini bilishardi. Miloddan avval III a. yilnomasida xitoy falasufi Xen-Fey-tsz kompasni tuzilishini yozgan. Kompasni konstruksiyasi takomillashtirilgandi.

Kompas, durbin va “dengiz texnikasini” usishi sayohatlarga, savdo sotiqa ilmiy bilimlar bilan almashishga turtki berdi va XV –XVI aa. buyuk jugrofik kashfiyotlar davri deb atalishga sabab bo’ldi.

3. *Xunarmandlarni tsex birlashmalari.* Feodal nisbatlar xunarmandlarni tsex birlashmalarni paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Ular xunarmandlarni raqobatni o’sishdan, shaxar xunarmandchilikni mustahkamlanishiga va rivojlanishiga olib keldi.

Ilk bor tsex birlashmalari Vizantiyada (IX a.) va Italiyada (X a.) va kechroq Evropa mamlakatlarida paydo bo’lgan.

Tsex birlashmalarini paydo bo’lishi odamzodni tarixida katta ahamiyatga egadir.

4. *Manufaktura. Mehnat qurollarni differentsiatsiyasi.* XVI asrdan boshlab tsexlar manufakturaga (lot. manus – qo’l, factura - ishlab chiqarish). birlashadigan bo’ldi. Bu korxonalarda mehnatni taqsimlanishiga olib keldi. Buni yordamida mehnat unumdorligi kutarildi va ixtisoslashgan mehnat qurollarni paydo bo’lishiga sabab bo’ldi.

Manufakturalar ilk bor XIV asrda Italiyada paydo bo’lgan. XV asr oxirida-XVI asrni boshida ular Germaniya, Angliya, Niderlandiya va Frantsiyada tashkil etilgandi. XV- XVIII aa. movut, shoyi, qurol, oyna va b. manufakturalar evropa mamlakatlarida tashkil etildi.

Manufakturalarni rivojlanishida ishlab chiqarish jarayonda ko’p ishchilarni kerakligi, quvatni ko’p sarf etilishi maxsulotni mashinada ishlab chiqarishda kerakli sharoitlar yaratildi.

5. *Soatlar va tegirmonni kashf etilishi. Mashinalar nazariyasi.*

Hattoki antik davrida mashina odamni o’rnini egallash mumkin deb hisoblashgan. Masalan, Geron Aleksandriyiskiyini “Avtomatlar teatri” traktatida exrom va teatr mexanizmlarini tuzilishi yozilgan.

Rim imperiyasida mashinalar nazariyasi ancha-muncha rivojlangandi. Mark Vitruviyni “Me’morchilik tug’risida 10 kitob” asarini oxirgi kitobi mashinalarga bag’ishlangan. Bu erda ilk bor mashina tuShunchasi ta’riflangan (katta kuchga ega og’irlikni ko’taradigan yog’och bulaklarni birikmasi). Antik davrdan boshlab, O’yg’onish davrigacha qadar mashinani yaratish printsiplari deyarli o’zgarmagan. Shunday mashinalar yog’ochdan ishlangandi. Bu kutaradigan mexanizmlar, tegirmonlar va ygiruv mexanizmlar edi.

XII-XIII aa. ko’p funktsiyali mexanizmlar ihtiro etiladigan bo’ldi. Masalan, mahsus moslama yordamida an’anaviy tegirmonda movut, qog’ozni ishlash, metallga ishlov berish, darahni arralash mumkin edi.

Bu vaqtda fantastik mexanizmlar, perpetum–mobilleni rasmlarni XIII asrni birinchi yarmida Pikkardiyadagi Villar de Onekur chizgan. TabiatShunoslar va faylasuflar kelajak texnikani dizaynerli namunalari to’g’risida yozishgan. XVII va ayniqsa XVIII aa. texnika rivojida soat va tegirmon katta rol o’ynagan, chunki ular mashina industriyasiga utish uchun moddiy asos bo’lgan.


Soat – bu amaliy maqsad uchun ishlangan birinchi avtomat. Uni asosida bir maromdagi harakat qilish uchun nazariya rivojlangdi.

Qadimiylkda (mil.av. 3000 y.) vaqtni bilish uchun Misr, Xitoy va Hindistonda quyosh soatlar bilan foydalanilgandi. Qisqa vaqtni ulchash uchun qum yoki suv soatlar qo'llangandi.

XIII a. mexanik minora soatlar paydo bo'lgan. Bular zanjirga osib qo'yilgan og'irlik yordamida ishlardi. XV asrda uralgan prujinali soatlar ixtiro etilgan. XVII asrda buyuk golland mexanik, fizik va matematiki Xristian Gyuygens ilk bor (1657 yilda) mayatnikli devoriy soatni va spiralli soatni kashf etgandi.

Tegirmonni va soatnlarni paydo bo'lishi mashinalarni tadbiq etilishiga sabab bo'ldi. Ammo xunarmandlar tsex birlashmalari mashinalarni tadbiq etilishiga qarshi bo'lgan. Ular mashinalarni sindirgan, mahsus qarorlarni chiqarilishiga sabab bo'lgan.

Faqat XVIII asrda bu qarorlar va qonunlar taqiqlangan.



### Nazorat savollari:

1. Kitobni chop etish, qog'ozni ixtiro etilishi nimaga olib keldi?.
2. Kompas va ko'zoynakni ixtiro etilishinimaga sabab bo'ldi?
3. Xunarmandlarni tsex birlashmalari mexnat unomdorligiga qanday ta'sir etdi?
4. Manufaktura- bu nima?
5. Soat va tegirmonni ixtiro etilishi qanday rol o'ynadi?

### 3- mavzu: Evropada sanoat inqilobi.

#### Reja:

1. Moki-samoletni va charx "Djenni"ni kashf etilishi. Texnikaviy inqilob.
2. Djeyms Uattni dvigateli. Bug' asrni boshlanishi.
3. Mexanik Modslining ixtirosi. Ishlab chiqarishda texnikaviy inqilob.
4. Konveyirni ixtiro etilishi.
5. Ilmiy ixtirolar va texnik kashfiyotlar.
6. Sanoatda inqilob davrida dizayn g'oyalari.

1. *Moki-samolyotni va charx "Djenni"ni kashf etilishi. Texnikaviy inqilobning boshi.* 1733 yilda Angliya to'qimachilik sanoatidagi ixtiro texnikaviy inqilobga turtki bo'lgan. Bu Djon Kley qo'l mexnatdan ozod etgan kashfiyoti - to'quv dastgoxni mexanik (samolyot) mokisidi. Shunday mokini qo'llashi mexnat unumdorligini ikki baravar kutargan va jun va zig'ir gazlamalarni ko'proq chiqarilishiga imkoniyat bergan. Bu esa ko'p miqdorda eshilgan ipni talab qildi.

1785 yilda Djeyms Xagrivs mexanik egiruv mashinani ixtiro etdi, unga Djenni (qizini ismi) nomini berdi.

2. *Djeyms Uattni dvigateli. Bo'g' asrni boshlanishi.* Sanoat inqilobi bo'g' mashinani ixtirochisi bilan bog'lik. Djeyms Uatt 1765 yilda bo'g' dvigatelni ixtiro etdi. Bo'g' dvigateli keng qo'llandigan bo'ldi. Irlandlik Robert Fulton 1803 yilda



paroxod konstruksiyasini yaratdi, 1806 yilda esa birinchi bo'lib Gudzon daryosida sayohat qildi.

1803 yilda Richard Trovik parovozni qurdi. 25/VII-1814 y. Dj. Stefanson 6,4 km/soat tezlikda 8 vagonda 30 tonn yukni sudrab obordi. 1820 yilda Dj.Stefanson ilk bor parovozni ishlab chiqaradigan zavodi ishga tushdi.

### 3. *Mexanik Modslini ixtirosi. Ishlab chiqarishda texnikaviy inqilob.*

Usta-mexanik Modslini 1807 yilda bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan sistemasini ixtiro etdi. Natijada vaqt kam sarf etilardi. Bu sistema XX asrgacha qo'llangandi.

4. *Konveyirni ixtiro etilishi.* Mahsulotni ishlab chiqarishni rivojiga inqilobiy ixtiro konveyer bo'lgandi. Konveyer yordamida mahsulotni ishlab chiqarilishi Genri Ford bilan bog'liq. Ilk bor mehnat taqsimotini ishlab chiqarishga amerikalik Eli Uitni 1801 yilda qo'llagan. G.Ford bu g'oyani rivojlantirib, mashinalarni ishlab chiqarishga qo'llagan. Konveyer yordamida murakkab texnikani ishlab chiqarishga imkoniyat to'g'ildi.

5. *Ilmiy ixtirolar va texnik kashfiyotlar.* Bo'g' dvigateli qo'l mehnat o'rnini mexanizmlarni ixtirolari mashinasozlikni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularni takomillashtirish qiyin edi. Shuning uchun XIX asrda texnikaviy muammolarni echadigan texnikaviy fanlar paydo bo'ldi.

XIX asrni oxirida Vilyam Rentgen rentgen nurlarni ochgandi. Frantsuz fiziklar Per Kyur va Mariya Skladovskaya Kyuri radioaktivnostni ochishgandi.

1911 yilda Ernest Rezerford atomni planetar tuzilishini, 1913 yilda Daniya fiziki Nils Bor atmoni kvant nazariyasini tavsiya etishgandi.

1907-1916 yy. Albert Eynshteyn umumiy nisbiylik nazariyasini ixtiro etdi.

6. *Sanoatda inqilob davrida dizayn g'oyalari.* Sanoat korxonalarida ishlab chiqarigan mahsulotlarni tashqi ko'rinishi xunarmandchilik va manufakturalar buyumlarga nisbatan estetik sifati past bo'lgan. Undan tashqari ular unikal bo'lmasdan, minglab bir biriga o'xshar edi. Xunarmandlar chiqaradigan mahsulotlari esa bir biriga o'xshamasdi va analoglarga asoslanardi.

Yangi ixtirolar, texnikaviy yutuqlar industrial ishlab chiqarish Yangi texnikaviy echimni, Yangi Shakllantirish printsiplarni talab qilardi.

1790 yilda J.Lui Davidni nutqida texnikani rivojlanish natijasida inson madaniyatini taqdiri to'g'risida tashvish sezilgandi.

Texnikani rivojlanishi bilan madaniyatni inqirozi to'g'risida Gyoteni nutqlarida ham fikr bor. "Mashinalar qo'llanishini kengayishi meni aziyat chektiradi va qo'rqitadi."

Shiller "Odamni estetik tarbiya etish xatida" quydagini yozgan: "Madaniyatni bo'yuk vazifasi insonni fizik va moddiy tashqi muhitda Shakl estetik qonunlariga bo'ysunishi kerak, chunki utmishdan emas, balki estetiklikdan ma'naviy xolat rivojlanishi mumkin".

Angliyada bu masalani echish uchun san'at, kundalik hayot va texnikani o'zaro bog'lash uchun mahsus kumitalari tashkil etilgandi.

1849 yildan boshlab, Londonda buyum dunyosini estetik muammolariga va loyihalashga bag'ishlangan "Journal of Design and Manufactures" jurnali chiqadigan bo'ldi.

Aynan Shu vaqtda “industrial art” (sanoat san’ati) atamasi paydo bo’ldi. Bundan oldin “san’at” va “badiiy ijod” maishiy buyumlar va libosni yaratilganda qo’llanmasdi.



### Nazorat savollari:

1. Moki-samoletni va charx “Djenni”ni kashf etilishi texnikaviy inqilobga ta’siri
2. Djeym Uattni bug’ dvigatelin progressga ta’siri qanday bo’ldi?
3. Mexanik Modslining ihtirosi.
4. Konveyirni ihtiro etilishi nimaga olib keldi?
5. Ilmiy ihtirolar va texnik kashfiyotlar.
6. Sanoatda inqilob davrida dizayn g’oyalari qanday?

#### **4- mavzu: XIX asr oxiri. Shakllantirish yagni falsafani tug’ilishi.**

##### **Reja:**

1. Texnika - san’at kabi. Birinchi xalqaro sanot ko’rgazmalari.
2. 1851 yil birinchi xalqlaro sanoat ko’rgazmasi. Djozef Pakstonni billur saroyi. XIX asr oxiri.
3. 1889 y. Parijdagi xalqaro ko’rgazmasida sanoat saroyi va Eyfel minorasi.
4. XIX asrni oxirida sanoatni Shakllantirishda uslubiy yo’nalishlar.
5. Muxandis uslubi.
6. Badiiy kitch.

*1. Texnika san’at kabi. Birinchi xalqaro sanoat ko’rgazmalari.*  
Manufakturalardan mashinada ishlab chiqarishga utilishi, savdo-sotiq va umum milliy bozorlarni tuzilishi ko’rgazmalarni roli kengaytirdi. XVIII asrni 60 yldan boshlab savdo-sanoat turdagi umum milliy ko’rgazmalar Londonda (1761, 1767yy.), Parijda (1763 y.), Drezdenda (1765 y.), Berlinda (1786 y.), Myunxenda (1788 y.), Sankt-Peterburgda (1828 y.) va b. shaxarlarda utgan.

Bunday ko’rgazmalar kommertsiya maqsadidan tashqari Yangi texnikaviy yutuqlarni namoyish etish edi. 1791 yilda Pragadagi ko’rgazma sotish uchun emas, balki “badiiy namoyish” uchun utqazilgan.

XVIII asr oxiridan boshlab, Parijda Mars maydonida doimiy sur’atda milliy sanoat ko’rgazmalari utqaziladigan bo’ldi. Frantsuz sanoat buyumlarini birinchi ko’rgazmasi 1798 y. sentyabrda utqazilgandi. Bu ko’rgazmada asosan keng iste’mol mollari namoyish etiladigandi: soatlar, eshilgan jun iplar, oboilar va b. Ko’rgazmada 110 eksponatlar namoyish etilsa ham, uni ahamiyati muhim bo’lgan.

Bu ko’rgazma o’zgacha xalq festivali bo’lgan, o’rta asr tsex va gildiyalarni cheklanishi inqilob ozodlikni sharaf bayramiga aylangandi.

XIX asrni ikkinchi yarmida mahsus savdo xalqaro ko'rgazmalari tashkil etilgandi. XX asr boshida ma'rifat–bilish maqsadida xalqaro ko'rgazmalari utqaziladigan bo'ldi.

Ko'rgazmalarni xalqaro darajasi musobaqa imkoni tug'ildi va har bir ko'rgazmani yaxshiroq tashkil etish uchun intilishga olib keldi. Shuning uchun ko'p sohalarda dadillikni ko'rsatdi.

2. *1851 yil birinchi xalqlaro sanoat ko'rgazmasi. Djozef Pakstonni billur saroyi.* XIX asr sanoat inqilobi mol sotiladigan bozorni Yangi tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Yangi davr boshlandi – erkin targ'ibot davri.

1851 yilda Angliyada birinchi xalqaro ko'rgazmasi “buyuk” ko'rgazma deb nomlagandi. Londonni Gayd parkida bu ko'rgazma “Barcha xalqlar odamni takomllashtirish uchun ishlashsin” shiori bo'yicha utgan. Uni tashkilotchilari shaxzod-konsort Albert va rassom Genri Kolm bo'lgan.

Bu ko'rgazma uchun billurdan mahsus xashamatli saroy qo'rilgandi. Bino standart elementlaridan qo'rilgandi. 564x125 m razmerli pavilon 6 oyda unifikatsiyalangan detallaridan qo'rilgandi. Qo'ruv elementi 1,25m. uzunligidagi oyna bo'lgan. Binoni loyihalash uchun konkurs e'lon etilgandi. Konkursga taqdim etilgan 245 loyiha qabul qilinmagandi. Bog'bon Djozef Pakstonni g'oyasini jyuri ma'qulladi. Oranjereyani oyna va metallardan qo'rish tajribasi asos bo'lgandi.

Billurdan saroy – bu me'morchilikda inqilob bo'lgan. Bu Yangi uslubni rivojlanishiga sabab bo'ldi. Endi me'morni taqdiri muhandisni qo'liga tushdi.

Billur saroyida tarix va an'anani taqdim etadigan eksponatlar bo'lgan. Ko'rgazmada mashinalar, minerallar, xunarmand buyumlar, ingliz kema moslamalar, lokomotivlar, ural platinasi, frantsuz gobelenlar, tunis gazlamalari, shveytsar soatlari, paxta, kauchukdan birichi buyumlar, malaxitdan rus idish mollari, 18 tig'li pichoq va b. taqdim etilgandi. Stendlar qimmatbaho magazinlarni eslatardi. Buyumlar qimmatbaho mato bilan qoplangan tagliklarda, chodni tagida pardalar, popuklar, badiiy kashtalar, bayroqlar orasida turardi.

3. *1889 y. Parijdagi xalqaro ko'rgazmasida sanoat saroyi va Eyfel minorasi.* London ko'rgazmasidan keyin xalqaro sanoat ko'rgazmalari biri ketin poytaxtlarda o'tqziladigan bo'ldi: Nyu-Yorkda (1853 y.), Venada (1873y.), Sidneyda (1879 y.), Melburnda (1880 y.).

XIX asrni ikkinchi yarmidan boshlab Parij yirik ko'rgazma markaziga aylandi. Bu erda birinchi ko'rgazma 1855 yilda utqazilgan, so'ng 1867, 1867, 1889, 1900 yy.

Parijdagi Mars maydonida 1867 y. xalqaro ko'rgazmasi uchun xashamatli bino “San'at saroyi” qo'rilgandi. Saroy uchun uzunligi 490 m, eni 386 m 7 kontsentrik ellipsimon gallereyasi bino qo'rilgan. Markaziy gallereyasni ichida palma bog'i qilingandi. Tashqi perimetri bo'yicha mashinalar gallereyasi qator turgan, u erda sanoat uskunalar va moslamalar namoyish etilgandi.

1889 y. ko'rgazmaga Mashinalar saroyi va muhandis Gustav Eyfelni mashhur minorasi qo'rilgan. Mashinalar saroyini karkasi balandligi 45 m, uzunligi 420 m, oraligi 115 m 20 fermadan bo'lgan. Bino oynali devor bilan uralgandi. Eyfel minorasi XIX asr sanoat inqilobi aksi bo'ldi va, doimiy turadigan eksponatga aylanib, Frantsiya ramzi bo'ldi.

300 metrli xashamatli inshootni ko'plar tushunmadi. Uning estetik xususiyatini sezishmadi, chunki bu yalang'och konstruktsiya edi. Minorada ilk bor tashqi va ichki fazo o'zaro birlashgandi. Ayniqsa spiral zinadan tushganda bu yaxshi sezilardi.

Shu davrni xashamatli ko'rgazmalari jamoada optimizmni va industriyani cheksiz imkoniyatlariga ishonch qozondi. "Industriya odamzodni biriktradi" – deb shaxzod-konsort Albert orzu qilardi.

Xalqaro sanoat ko'rgazmalari dizaynni rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu ko'rgazmalarda buyumlar, san'at asarlari namoyish etilardi. Bu erda buyumlarni estetik kamchiliklari yaqqol ko'ringandi. Shuning uchun sanoat buyumlarni qo'lda ishlangan buyumlarga o'xshatib qilishga intilishgan.

Ammo, Shuncha ko'p miqdorda namoyish etilgan buyumlarning estetik xususiyati juda past ekanligi ayyon bo'ldi. Natijada sanoat mollarda Yangi Shakllantirish yullarni qidirish kerakligi ayyon bo'ldi. Bu muammolarni muxokamasi jamoatga katta ta'sir ko'rsatdi va ilk bor buyum muhitni ijtimoiy-estetik tomonlariga e'tibor etishni talab qildi. Ishlab chiqish sohasida estetik Shakllarni yaratish uchun tadqiqotlar boshlandi.

4. *XIX asrni oxirida sanoat Shakllantirishda uslubiy yo'nalishlar.* Yaratilgan Yangi funktsional mazmunli buyumlar ko'pincha avvalgi buyumlariga o'xshardi. Planerning kanoti qushni qanotiga o'xshardi, avtomobil va tramvayni Shakllarni asosida esa ot aravasi bo'lgan. Bu holat birinchi tomondan odamning fikirlashi araxaik bo'lganligini, ikkinchi tomondan esa – dizaynerli fikirlash muxandis fikirlashdan orqada qolganligini ko'rsatardi.

Ilk bor dizayn juda primitiv bo'lgan. Buyumni funktsionalligi va tejamligi bilan muxandislar Shug'ullansa, dizaynerlar esa - estetik tashqi ko'rinishi bilan Shug'ullanardi. Dizaynerlar mashina texnologiyalarni Shakllanish mohiyatini ohirigacha tuShunmagandi, rassomlar esa faqat an'anaviy usullarni va semantik siymolarni qo'llagandi.

5. *Muxandis uslubi.* Muhandislarni izlanish ishlanmalari va laboratoriya tajribalari asosida paydo bo'lgan. Shunday tajribali namuna ko'pincha o'zgacha "funktsional maket" bo'lib, ikkinchi bosqichka tayyor edi, ya'ni dizanerni ishiga. Shundan so'ng estetik xususiyatiga ega yakunlangan maxsulot bo'lardi. Buyumni Shunday Shakllantirinishi ichki foydalanishga mo'ljallanib, kommertsiya talabidan tashqari bo'lgan, va modaga bo'ysunmagan. Mualliflar bu erda faqat utilitar-funktsional vazifani, badiiy-estetik muammolarni, ergonomika vazifalarni, texnologiyasini va b. echgan.

Shaklni yaratishda ratsionallik qonunlarga rioya qilib, Shunday Shakllantirish badiiy qonunlarini va uslublarini inobatga olmasdi. Uslub shartli "muxandis uslubi" deb atalgandi. XIX-XX aa. Shunday ratsional "muhandis" yo'nalishni rassomlar va dizaynerlar "funktsionalizm" uslubi deb ataldi. Bu uslub XX asr buyumlarni Shakllantirishda asosiy bo'lib, xozirgacha mavjud.

6. *Badiiy kitch* XIX-XX asrni boshida paydo bo'lgan. Loyihalashni dastlabki bosqichida sanoatda ishlab chiqaraladigan buyumlarda iste'molchilarni talabiga ko'ra bezak keng qo'llangandi.

Ishlab chiqarish korxonalariga taklif etilgan rassomlar sanoatga oid mahsulotni loyihalash asoslarini tuShunmasdi, ular buyumlarni estetik xususiyatini kutarish

uchun stayling usulini qo'llashgandi. Ko'p xolatlarda loyhalovchilar va iste'molchilarni fikirlashi an'anaviy bo'lgan, va Shunday stayling faqat bezatishni va qo'l mexnatni takrorlashni nazarda tutardi. Ser bezatilgan maxsulot qimmatlashib ketgandi va estetik tomanidan yomon didni ko'rsatgandi.



### Nazorat savollari:

1. Birinchi xalqaro sanot ko'rgazmalari roli qanday?
2. 1851 yil birinchi xalqlaro sanoat ko'rgazmasini eksponatlari qanday?
3. 1889 y. Parijdagi xalqaro ko'rgazmasida sanoat saroyi va Eyfel minorasi tavsiflab bering.
4. XIX asrni oxirida sanoatni Shakllantirishda uslubiy yo'nalishlarni tavsiflang.
5. Muxandis uslubi asosiy xossalari.
6. Badiiy kitchni tavsiflang.

### 5- mavzu: XIX asr oxiri. Birinchi dizayn nazariyalari.

#### Reja:

1. Zemporni amaliy estetikasi.
2. Djon Ryoskinning g'oyalari.
3. Uiyalyam Morris va "San'at va xunar" harakati.

*1. Zemporni amaliy estetikasi.* Birinchi jahon sanoat ko'rgazmasini tayyorgarligida nemis me'mori qatnashgan. Shaxzod Albert, amaliy rassom G.Kol va Zemper birgalikda ishlab, Kanada, Misr, Shvetsiya va Daniya ekspozitsiyalarini loyhalashgan.

Ko'rgazma tamom bo'lgandan so'ng, Zemper o'z tassurotlarini "Fan, sanoat va san'at" nomli kichkina broshyurasida sistematizatsiya etdi. Zemper moddiy madaniyat nazariyachisi sifatida fikir bildirdi. U sanoat mollarni ishlab chiqirishida badiiy ijod inqirozi to'g'risida fikir bildirdi. Zemporning qarashlari texnikaviy progress va badiiy ijodni rivojlanish masalasiga printsiplial Yangi qarashni tavsiya etdi. G.Zemper fan, texnikaviy progress va badiiy amaliyatga Yangi materiallarni taqdim etgan, ammo ular estetik jihatidan o'zlashtirilmagandi. Yangiliklarni tarixiy rivojlanish jarayonida estetik o'zlashtirish uchun berilgan vaqt qisqarardi.

1855 yilda G.Zemper Tsyurixdagi Oliy texnikaviy maktabdagi kafedrani boshqardi. 1860-63 yy. "Texnikaviy va tektonik san'atlarda uslub, yoki Amaliy estetika" nomli tadqiqotini G.Zemper chop etdi. Bu asarida san'atda Shakllantirish tarixiy qonuniyatlari tadqiqot etilgandi va funktsiya bilan Shakl, material va texnologiyani o'zaro bog'ligi ko'rsatilgandi. G.Zemper amaliy san'atni har xil turlarini tadqiqot etib, "texnikaviy san'atni" "erkin" san'atlarga nisbatan afzalligini asosladi.

2. *Djon Ryoskinning g'oyalari*. Industrial ishlab chiqarishni keng tarqalgan sharoitda, intellektual elita mexanizatsiyani uy buyumlar estetikasiga ta'sir etganligiga norozilik ko'rsatdi.

Industrial jamiyat davrni kelishini san'atShunos Djon Ryoskin qattiq tanqid etgandi. U rassom, shoir, san'atShunos bo'lgan. San'at to'g'risida u o'z fikirlarini "Zamonaviy rangShunoslar", "Etti me'mor yulduzlari", "Venetsiya toshlari" va "San'at to'g'risida ma'ruzalar" asarlarida ko'rsatgan. Kitoblarida, maqolalarida va nutqlarida Dj.Ryoskin san'at- kompleks ijod faoliyati degan. Nutqlarida boy va qambag'allar orasidagi qarama-qarshiligiga, shaxarlarni industriyalashligiga va qishloq joylarni tashlab qo'yilganligiga, tabiatni inqirozga yuz tutishishiga qarshi chiqardi. U texnikaga qarshi chiqmagan, balki uni oqibatiga. Muhandislar mashinalarni yaratganda tabiiy kuchlarga tayanishi lozim degan.

3. *Uilyam Morris va "San'at va xunar" harakati*. Dj. Ryoskinni g'oyalarni shogirdi Uilyam Morris qo'llab quvatlagan. O'z karerasini rassom va me'mor sifatida boshlab, u dekorativ san'atni nazariyachisi, xunarmand, shoir, tajrimon va nashr etuvchi bo'ldi. U.Morris, P.Marshal, Ch.Folkner va Dj.Ryoskin bilan birgalikda badiiy-sanoat "Morris va Ko" birlashmasini tashkil etishgan. Ular xunarmand ustaxonalarida devoriy rasmlar, mebel, gazlamalar, oboilar, metallardan buyumlar, vitrajlar, shpalerlar, kashtalarni va b. qilardi. Intererlarni bezatishda, mebellar eskizlarini yaratishda, dekorativ gazlamalarni naqshini chizishda o'z dustlar-rafaelitlarni jalb etgan. Ular uyni bir uslubda yasatishga yordam berishgan.

U.Morris o'rta asr usullarini tiklamoqchi bo'lgan, Shuning uchun uni ishlarida, ayniqsa mebelda o'rta asr an'analari sezilardi.


Gazlamalar, oboilar, gilamlar va b. interer elementlarini yaratganda rassomlar asosan o'simlik va hayvoniy dunyodan ilhomlangandi.

Boshqa rassomlar Morrisdan o'rnak olib, "San'at va xunarlar" deb nomlangan birlashmani tashkil etishdi. 1882 yilda Artur Makmerdo tashkil etgan "Asr gildiyasi" eng nufuzli edi. Morris asrlardagi mayin chiziqlaridan ilhomlanib, Makmerdo nihoyat xashamatli naqshlarni yartgan, ular chuzilgan egri elementlardan tuzilgandi. Modern uslubida grafika sohasida yaratilgan birinchi asar - "Reyn shaxarni cherkovlari" kitobni bezagi bo'lgan. Titul varag'ini chetlarida gullar va chuzilgan stilizatsiyalangan qo'sh figuralari dinamik nafis naqshni yaratadi.

Morris Yangi xayot uslubini tavsiya etdi, texnikani qo'l xunar mexnati bilan birlashtirish o'zgacha halq ijodini namoyoni deb hisoblagan. Morris san'at va adabiyot masalalari bo'yicha estetik kontseptsiyasini 35 ma'ruzasida bayon etgan. Morris estetik nazariyasida xunar-mexnat printsipi san'at mohiyatini tuShuntiradi. Badiiy-ijodiy mexnat bilan xamma Shug'ullanishi kerak deb hisoblaydi.

XIX asrni o'rtasida san'at ijtimoiy vakuumda edi. San'at qandaydir ijtimoiy foydani bermaydi deb hisoblashgan. Morris va "San'at va xunar" harakat nazariyachilari bunga qarshi chiqqandi. San'at nazariyachilari va amaliyotchilari har xil yo'ldan borsa ham, san'atni ijtimoiy foydali qilishga intilishgandi.

Industrial jamiyatni o'yg'unlashtirishga yunaltirilgan harakatni g'oyalari ommabop chiqariladigan maxsulotga bag'ishlangan Yangi yo'nalishni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan, ya'ni "dizaynni".



### Nazorat savollari:

1. Zemporni amaliy estetikasini asosiy tomonlari..
2. Djon Ryoskinning g'oyalarini mohiyati.
3. Uiyalyam Morris va "San'at va xunar" harakatini tavsiflang

### 6- mavzu: XX–XXI asr chegarasida Evropada yangi badiiy uslub.

#### Reja:

1. Evropada Yangi uslubni qidirish.
2. Yangi uslubni Shakllantirish printsiplari.
3. Modernda uslubiy yo'nalishlar.

XIX asrni oxirida jamoani hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaxarlarni industrializatsiyalanishi sharoitida sanoat va kommertsiya markazlarida katta boyliklar to'plangandi. Mashinada ishlab chiqish usullarni keng tadbiiq etilishi mahsulotlarni ko'pligiga olib keldi. Telegraf, poezdlar va paroxodlarni paydo bo'lishi jamiyatni hayot tarziga ta'sir etdi. Jaxon tez o'garib ketmoqda, ammo san'atda o'zgarishlar sekin ketardi. Yangilikni aks etadigan badiiy uslub yaratilmagandi. Maishiy buyumlarni va me'morchilikda Shakllantirishda eski uslubga qaytishlar ro'y berilgandi: gotika, klassitsizm, renessans, Barokko va rokoko uslublariga.

Yangi uslub XX–XXI asr chegarasida evropada mamlakatlarida baravariga paydo bo'lgan. Uning asosiy maqsadi – funktsionallikka, tashqi bezakka, milliy an'analarga qaytish edi. Shunday stilizatsiya natijasida mutlaqo Yangi Shakllarni yaratilishi, yagona Shakllantirish usulga bo'ysunish bo'lgan. Retrospektivlik Yangi uslubda Yangi fikrlar bilan bog'liq edi.

Bu uslubni yashashi 1887–1914 yy. deb hisoblashadi.

Evropada uni turli nomlashgan. Ko'pincha Yangi uslubga "Modern" va Parijdagi magazin–salonni "Maison de l'Art Nouveau"(Yangi san'at uyi) nomidan "Ar Nuvo" deb atamalar berilgan. Frantsiyada "metro", "Gimar uslubi" (me'mor Gektor Gimar metroga kirishda unikal dizayn yaratgan) bo'lgan. Belgiyada Yangi uslubni me'mor Viktor Ortni nomi bo'yicha berilgan – "Ort uslubi", "1900 yil uslubi", "liliya uslubi", "to'lqinlar uslubi", "kema", va xattoki kulgili "vermishel", "solityor" va b. bo'lgan. Germaniyada "Yugenduslub"; Italiyada – "gul uslubi" yoki "Liberti" (Artur Libertini london univermagining nomi); Avstriyada "setsession" atamasi berilgan (Venada Sezession–san'atda akademizmga qarshi yosh rassomlarning guruhining nomi).

*1. Yangi uslubni Shakllantirish printsiplari.* Yangi uslubni asosiy xususiyatlari quyidagilar edi: tulqinsimon dekorativ chiziqlar; ma'lum mavzu; g'oyani yaxlitligi.

Ar nuvoni stilistik o'ziga xosligi – to'g'ri chiziqlar va burchaklardan voz kechish, mayin egilgan chiziqlarni qo'llash. Ar nuvo chiziqlari raqsga tushganini, tulqinsimon arabeskalarni eslatadi. Art novuning chiziq firma belgisi German Obristni "Qamchini zarbasi" kashtasi bo'lgan.

Yangi uslubni boshqa o'ziga xosligi – yaxlit sintetik uslubni yaratish. Moderni klassik namunalarda me'morchilar nafaqat bino loyihasini yaratishgan, balki yaxlit uslubiy kalitda mebellarni, oboilar naqshini va vitrajlarni, yoritqichlar Shaklini va xattoki idish tovoqlarni loyihalashgandi. Buyum–fazo muxitini badiiy yaxlitligini yaratgan.

Yangi uslub tarafdorlari eklektikadan voz kechib, assimetrik dinamik kompozitsiyalarni yaratishgan.

Yangi badiiy vositalarni qidirilishi, an'anaviy dekorativ bezaklardan voz kechishni, Shu davrda ilmiy va texnikaviy ixtirolar rassomlarga Yangi muhandis–konstruktiv echimlarni, metallga ishlov berishni va buyumlarni ishlab chiqarilishga yul ochib bergandi. Rang, faktura, materialni teksturasi va konstruksiyani g'ayritabiiy chiziqlar orqali Yangi uslub buyumlarida o'zgacha ko'rinardi va buyumlarni Shakllantirishda badiiy ifodalik vositasi bo'ldi.

2. *Modernda uslubiy yo'nalishlar.* Anri Van de Veldeni shiori “Tabiatga qaytib kelish” Yangi uslub uchun muhim bo'ldi. Ar nuvo rassomlar uchun tabiat tubsiz ijodiy manbaa bo'ldi, ular o'simliklar bilan ilhomlanib, o'z asarlarini yaratgandi. Egilgan siluetli gullar, poyalar va yaproqlar ijodiy fantaziya uchun boy manbaa bo'lgan. Gul g'unchasi (Yangi hayotni paydo bo'lish timsoli), chig'anoq, to'lqin, alanga, bulut, uzun poyali oqargan gulli ekzotik o'simliklar eng keng tarqalgan mavzu bo'lgan.

YOrqin va nozik xashoratlar va qushlar: nenachalar, tovuqlar va qaldirg'ochlar, ilonlar bu uslubga muvofiq edi. Ko'pincha sharq manbaalari qo'llanardi. Ayollarni tasivrida uzun sochni fantastik jingalari alangani va okean tulqinlarini eslatardi. Bu badiiy yo'nalish “floreall” deb atalgandi.

Modernda floreal yo'nalishni yorqin namunasi sifatida belgiya, frantsuz, nemis, ispan ustalarning ishlari bo'lgan. Ularni orsida Viktor Ort va Anri van de Veldening interer ishlari, Frans Xozemensning xaykallari, Gektor Gimarning parij metro panjarasi va mebeli, Barselonada fantastik qurilishlari, Myunxenda Avgust Endelni, Rixard Rimershmidtni, Berxard Pankokni panjaralari va mebellari bo'lgan.

Makintosh va “Vena setsession”ni boshqargan “Glazgo maktab”ning ustalari o'z qidirishlarini boshqa printsipda oborishgan. Ular “ar nuvoning birmuncha bosiq turini” yaratishgan. Bu erda erkin oqib turgan chiziqlar jiddiy nazoratda bo'lgan. Ularni diqqat markazida sof geometrik Shakllar bo'lgan va XX asr modernizmni to'g'riburchak funktsionalligini boshqalardan oldin sezishdi.

Charlz Renni Makintosh kech ar nuvoda eng nufuzli shaxslardan biri bo'lgan. Yangi uslubda ishlaydigan xunarmandlar birlashmasini katta qismi shotland dizaynerlar “To'rtlar guruhi”ni boshqargan. Makintosh “konstruktiv naqsh”ni o'zgacha turini yaratgan. U erda buyumni chegarasi dekor elementi bo'lgan.

Sof Shakllarni Glazgo maktabi Germaniya va Avstriya ar nuvoni rivojiga ta'sir etdi. Rassom va me'morchilar Vena guruhi – 1897 yilda tashkil etilgan Setsession faoliyat boshidan to'g'ri chiziqlarni egilgan ar nuvo chiziqlaridan afzalroq ko'rgan. Setsessionning keksa avlodi sifatida Otto Vagner (1841–1918) bo'lgan. Uni uqo'vchilari Yozef Mariya Olbrix va Yozef Xoffman Setsessionni ta'sis etuvchilarni orasida bo'lgan. Shakllarni jiddiyligi va nazoratdagi kontrasti setsession asarlarida



“klassik” ar nuvoni Yangi yo’nalishini paydo bo’lishiga, XX asr me’mori va Yangi uslub– funktsionallikni asosi bo’lgan.

Nemis va Avstriya Yangi uslub asoschilari grafiklar, rangshunoslar, dekoratorlarni orasidan chiqqan. Ular me’morni va amaliy san’atni o’zlashtirib, konstruktor, texnolog bo’lib qolishgan, san’at tarixini astoidil o’rganishgan, ayniqsa noan’anaviylarini. Bir necha yildan so’ng naqsh kompozitsiyalari bilan qiziqish pasaya boshladi va konstruktiv, ratsional echimlariga utishdi.

Aynan Shu vaqtda buyum ijodi va buyumlarni yaratish san’at darajasiga ko’tarilib, dizayn nazariyasini Shakllanishiga juda muhim rol o’ynadi.



### Nazorat savollari:

1. Yangi uslubni shakllantirish printsiplari ta’riflab bering.
2. Modernda uslubiy yo’nalishlarini o’zgacha xossalari qanday?

## 7- mavzu: Ilk amerika funksionalizmi

### Reja:

1. Ilk amerika funksionalizmi
2. Evropada birinchi funksionalizm g’oyalari. Verkbund Germaniyada. XX asr boshida san’atda badiiy avangard yunalishining paydo bo’lishi va rivojlanishi
3. Frank Lloyd Rayt.

### 1. Ilk amerika funksionalizmi

Mavjud qurilish texnikasi yordamida Chikago maktabi mutaxassislari binoning asosiy devorlarini po’lat melall konstruksiyalar bilan almashtirish g’oyasini ko’tarib chiqdilar. Bu Yangilik tez orada katta muvaffaqiyat qozondi. Chikago arxitektura maktabi idora uchun quriladigan ko’p qavatli binolarda engil va mustahkam po’lat karkas va oynavand tekis romlar qo’llash loyihasini taqdim etdi. Bunday me’moriy echim injener-muhandislar bilan birgalikda hal qilinishi bois, birinchi navbatda, industrial qurilish hisoblandi.

Bu uslub XIX-XX asrlar oralig’idagi me’morchilik uslublari ichida haqiqiy inqilob yasadi. Ko’pqavatli uylarni qurishning o’ziga xos prinsiplariga ega bo’lgan bu uslub industriya olamida juda mashhur bo’lib ketdi. Eng zamonaviy yashash sharoitlariga ega bo’lgan osmono’par binolar va oilaviy kottejlarning noan’anaviy arxitektura echimlari ko’pchilikning diqqatini tortdi. Shu tariqa Chikago maktabi uslubi keng yoyildi. Ularning loyihalarida eng kuchli dizaynerlar va injenerlarning ishlamalari asos bo’lib xizmat qilardi.

Qurulishlarda hamma narsa, ikr-chikirlarigacha, hisob-kitob bilan olib borildi hamda yagona echim topildi: minimum bezaklar, maksimum amaliylik. Asosiy e’tibor, bu osmo’no’par binolarning me’moriy qiyofasiga qaratildi.

Loyihachilar har tomonlama qulay va shinam xonalarni barpo etish uchun uy ichidagi bir qator kommunikativ unsurlarni qanday joylashtirish borasida anchagina

bosh qotirishlariga to'g'ri keldi. Asosiy elektr uzatqichlarga dizel generatorlarini ham ulash lozim edi. Aynan po'lat karkaslarga oynalar solingani bois universal rejalashtirishning imkoniyati kam edi. Chikago arxitektorlarining o'z faoliyatlarini tashkil etish borasidagi amaliy ishlari va noyob yondaShuvlari ko'pqavatli uylarda karkas tizimi keng tarqalishiga jiddiy sabab bo'ldi.

Arxitektura sohasidagi bu uslub nihoyatda noyob bo'lishi bilan birgalikda, Yangi me'morchilik Shakllaring dunyoga kelishiga ham turtki berdi hamda atrofdagi binolar bilan ham uyg'unlik kasb etdi. Bunga, albatta, bino hajmining proporsionalligi va pardoqlashdagi texnologiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Bu uslubda oyna va derazalar asosiy ahamiyatga molik bo'lib, derazalar ikki yonga surilib ochilardi.

XIX asr oxirlariga kelib, AQSHda jamiyat hayoti tubdan o'zgardi, nafosat haqidagi me'yorlar va madaniy asoslar Yevropa o'lchovlaridan farq qila boshladi. Amerika arxitekturasidagi pragmatik g'oyalar Yevropa klassitsizmi an'alaridan xalos bo'lish imkonini berdi va me'morchilikda Yangi epkinlarning esishiga sharoitlar yaratdi. 1870 yilning oxirlarida Chikago arxitektura maktabi dunyoga keldi. Uning tez suratlar bilan rivojlanishi va mashhur bo'lib ketishining asosiy sabablaridan biri shaharda yuz bergan dahshatli yong'in oqibatlarining tugatilishi bilan bog'liq qurulish ishlarining avj olishidir. Bu uslub nomoyandalari tez fursatlarda yig'ilishi va qurilishi mumkin bo'lgan, ko'pqavatli savdo markazlari va ma'muriy binolarni metall-karkaslar, ularni g'isht va oyna bilan to'ldirish orqali ko'tariladigan binolar loyihalarini taqdim qildilar. Ishbilarmonlar uchun mo'ljallangan bunday markazlar Chikago va Nyu-Yorkda keng quloqch yoydi hamda Amerika osmono'par binolari qurilishi asoslari sifatida tarixda qoldi.<sup>3</sup>

Chikago maktabining asoschisi Uilyam le Baron Djenney bo'lib, u Amerikadagi dastlabki osmono'par bino – “Xoum InShurens Kompani”ni (1883 – 1885 yillar) bunyod etgan.

Chikagoning ko'pqavatli uylarida keng va yorug' interyerlar, uy ichki qismini ommaviy konstruktiv unsulardan bo'shatish hamda Shu orqali binoning universal funkcionalligini oshirish nazarda tutilgan. Bu erda qo'llanilgan karkas tizimi Yangi me'moriy Shakl dunyoga kelishining asosi bo'lib qoldi. Bu maktab g'oyalari Salliven safdoshlaridan biri “Organik arxitektura” maktabi asoschisi F.L. Raytning faoliyatida yana ham takomillashdi. Amerika arxitektorlarining muvaffaqiyatlari Yevropada ratsionalizm uslubi mavqeining mustahkamlanishida asosiy rol o'ynadi.

## **2.Evropada birinchi funksionalizm g'oyalari. Verkbund Germaniyada. XX asr boshida san'atda badiiy avangard yunalishining paydo bo'lishi va rivojlanishi**

*Funksionalizm* – zamonaviy arxitektura va dizayn uslublaridan biri sanaladi. Oddiylik, qulaylik, erganomikaga moslik, to'g'richizimli Shaklar, predmetlarning ko'pfunksiyaliligi, bezakli unsurlarning yo'qligi unga xos asosiy xususiyatlardir. Bu uslubda yaratilgan interyer lo'nda, ammo yorqin va kutilmagan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin.

---

<sup>3</sup>HeskettJ.Industrial Design. London,1995.65b.

Funksionalizm – arxitektura yoʻnalish boʻlib, binoning foydaliligi, yaʼni funksiyasi uning Shakliga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etishi demakdir. XIX asr oxirlarida amerikalik arxitektori L. X. Sallivenning izlanishlari tufayli bu uslub mukammal meʼmorchilik yoʻnalishiga aylandi. “Shaklni funksiya belgilaydi” degan formula yigirmanchi yillarning oʻrtalariga kelib gʻarbiy-yevropalik arxitektorlar – ratsionalizm tarafdorlari tomonidan rivojlantirildi. Bu formulaga asosan funkcionallik prinsiplari Fransiyada Le Korbyuze, Germaniyada esa “Bauxauz” (V. Gropius, L. Mis van der Roe, X. Meyer va boshqalar) tomonidan ishlab chiqildi. Imorat qurilishi tizimiga mexanizmlarning qurilishi prinsiplari oʻtkazildi; bino funksional jarayonlarga qarab, aniq nisbatlarda boʻlaklarga boʻlindi, bunda aynan qaysi boʻlak nima maqsad uchun xizmat qilishi eʼtiborga olindi.

Funksionalizmning taxliliy metodlari, xususan, bino hududida hayotiy manfaatlarning har biri uchun alohida-alohida joy ajratish prinsipi (yashash, ishlash, dam olish, harakat qilish) turar joy qurilishi sohasida 20-yillarning oxirida ishlagan nemis arxitektorlari tomonidan toʻlaligicha mexanikalashtirildi.

Shu bilan birgalikda, nemis funksionalizmi xususiyatida demokratik anʼanalar mavjud boʻlib, uy-joy tanqisligi muammosini hal qilishda u juda qoʻl kelgan edi. E. May, B. Taut, M. Vagner va boshqa arxitektorlar kichik turar joy maskanlari uchun ishlab chiqqan loyihalarda (ular qisman amalga oshirilgan) ratsional rejalash, funksional jihatdan oʻzini oqlovchi arzon uylar, “kichikmetrajli” (minimal) kvartiralar hisobga olingan edi.

20-yillarning oxiriga kelib, Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH va Yaponiyada funksionalizm keng tarqalgan edi. Ammo u kengaygan sari oʻzining ijodiy metodga xos xususiyatlarini yoʻqotib bordi, u tashqi belgilariga koʻra “baynalminal uslub”ga aylanib, faqat Shaklining bir butunligi bilangina koʻzga tashlanishi mumkin edi. Bu yoʻnalishning tarafdorlari uni “funktionalizm” deb nomlanganlar (“funktionalizm” atamasini shveysariyalik arxitektura nazariyotchisi Z.Gidion 20-30-yillarning “noanʼanaviy duradgorligi” deb atagan edi).

### **3. Frank Lloyd Rayt.**

Amerikada sanoatni rivojlanishi evropaga nisbatan kechroq boshlangandi. Evropaga nisbatan Amerikada xom ashyo bilan boy boʻlgan, ammo kvalifikatsion ish kuchi kam edi. 50-chi yy. boshlangan industrializatsiya kvalifikatsion qoʻl mexnatni talab etadigan murakkab xunarlariga taʼsir etgandi. 1860–1895 yy. sanoatda ishlab chiqarilishi 7 karra koʻpaydi va AQSH Germaniya va Frantsiyani orqada qoldirib, Angliyadan keyin ikkinchi oʻringa chiqqandi.

Kup asrlar maboynida badiiy uslublari va anʼanalari boʻlmagan amerikan rassomlari va meʼmorlari vaqt va industrial ishlab chiqarishga mos Yangi Shakllarni qidirishgandi. Dizayner nomli Yangi mutaxassislik tugʻila bolangandi.

XIX-XXaa. sanoat meʼmori oʻzgacha boʻlgandi – koʻppqavatli va kontora uylari, yashash uchun Yangi vositalar bilan taʼminlangan alohida bir oyila uchun kottedjlar,

AQSHda dizayner avji faqat 20–chi yillarni oxirida boshlandi va Nyu–Yorkdagi birinchi Butun dunyo koʻrgazmasi (1939–1940) oʻtqazilganda avjiga chiqdi. Ilk amerikan funktsionalizmi dizayner tarixchilarni diqqatinin oʻziga tortdi: ular unda “dizayn hamma uchun” degan universal modelni koʻrishdi.

Ilk bor evropa jamoasi amerikan buyumlarni va maishiy xizmat uchun uskunalarni Londondagi birinchi Butun dunyo sanoat ko'rgazmasida (1851 y.) ko'rdi, qayerda boshqa buyumlar qatorida chuyan asosli maktab partasi namoyish etilgandi. Partalar uqo'vchini yoshiga, uning anatomik tuzilishiga, dars turiga moslangandi. Namoyish etilgan buyumlarning oddiyligi, texnikaviy aniqligi va Shaklni to'g'riligi tamoshabinlarni xayratda qoldirgandi. Barcha amerikan asboblari o'z mo'ljaliga mos va komfortli edi. Frantsuz Leon de Labord amerikaliklarda "sanoat millat"ni ko'ryabman va "Amerika o'z yuli bilan boradi" deb hisoblagan. Gotfrid Zemper ham Shu fikrda edi.

1876 yildagi Filadelfiya sanoat ko'rgazmasida nemis delegatsiyani boshqargan taniqli olim F. Relo amerikanliklarni asbob va mashinalar Shakl go'zalligidan xayratda qolgan. "Filadelfiyadan xatlar"ida quyidagini yozgan: " Boltalar, katta pichoqlar, bolg'alar xilma-xilki va go'zal. Ular o'z mo'ljaliga mos va iste'molchini talablarini qondiradi." Berlin amaliy san'at muzeyi direktori Yulius Lessing 1878 yilda Parijdagi Xalqaro ko'rgazmasida namoyish etilgan amerikan boltalarni ko'rib, estetik san'at asralarni ko'rgandek lazzatlangandi. Ular chiziqlarni go'zalligini "bezak yordamida emas, balki faqat boltani Shakli odamni qo'lga va foydalanganda tana harakatiga moslanganligi bilan erishilgan".


Amerikada amaliy san'at barcha turlarida Yangi uslub yaratilganligi to'g'risida 1876 yildagi ko'rgazmasi bo'yicha frantsuz rasmiy hisobotida aytib o'tilgan.

*1. Frank Lloyd Rayt.* Industrial dizaynni paydo bo'lishi va rivojlanishiga amerika me'morchi Frank Lloyd Rayt sabab bo'lgan. "Preriya uylari" uchun mebelni nafis proportsiyalari va geometriyasi, bezaksizligi bilan jaxon dizayn tarixida sharafli urinni egallaydi. Yuz yildan so'ng 80-chi yy. seriyali chiqazilgan bu mebel zamonaviy ko'rinardi. Xozir 30 mebel loyihalar taniqli italian firmasi "Kassina" chiqazadi va san'at asari kabi iste'mol qilinadi.

1932 yildan boshlab, Rayt ko'p vaqtini pedagogik faoliftiga bag'ishlagan. Rayt mashina ishlashini, uni mantiqasini, Shaklini, odamga ta'sirini o'rganish kerakligiga va mashina yordamida eklektika va pastkashlikni tirajlashiga yul qo'ymaslikka chaqirgan. Qimmatbaho qo'l mexnatni rad etib, dizaynerlar ommaviy mashinada ishlab chiqaradigan buyumlarni yaratganda, dastlab zamonaviy texnologiya va materiallarni xususiyatini o'rganish kerak deb Rayt joriy etgan.

Buyuk Britaniya va Germaniyada dizayn nazariyasi an'analari mavjud bo'lsa ham, olimlar fikri bo'yicha sanoat dizayni mustaqil kasb sifatida ilk bor Amerikada paydo bo'lgan, chunki Evropaga nisbatan u erda ommabop iste'mol Shakllanishi oldinroq bo'lgan. Shunday iste'mol tovarlari avtomobil, kir yuvish mashinalari, muzlatqichlar, radiopriyomniklar, maishiy elektruskunalar amerikaliklarga 20-chi yy. tavsiya etilgandi, Shuning uchun ularni hayot tarzi tezlangandi.

Evropada Amerikani "mashina asrni" Yangi uslubi asoschisi deb hisoblagan. Yosh me'morchilar Le Korbyuze va Valter Gorpis, keyin Bauxauzni direktori bo'lgan, amerikasi sanoat me'morni, parovoz va paroxodni Shaklini o'rganishgan.



### Nazorat savollari:

1. Funksionalizm
2. Konstruktivizm
3. Konstruktivizmning arxitektura borasidagi prinsiplari
4. “funksionalizm” ni dunyoga kelishiga sabab
5. Frank Lloyd Raytni amerikan dizaynda o’rni.
6. Amerikan funksionalizmni asosiy tomonlarini ta’riflang.

### 8- mavzu: Evropada birinchi funksionalizm g’oyalari.

#### Reja:

1. Adolf Loos – evropa funksionalizmni asoschisi.
2. Germaniyada Verkbund.
3. Peter Bernes va kompaniya AEG badiiy uslubi.

Angliya va Frantsiyaga nisbatan Germaniya 110 yil keyinroq (1862 yilda) mahsulotni qo’l mexnatdan sanoatda ishlab chiqarishga o’tgan. Ammo, bir necha un yillardan sung xunarmandlar va dexqonlar mamlakati faqat sanoat mamlakati bo’lmasdan, balki asr peshqadami bo’ldi Frantsiya va xattoki Angliyani orqada qoldirib.

Bu vaqtda Germaniya birinchi yirik sanoat firmalarida rassomlarni, iqtisodchilarni va sanoatchilarni biriktiradigan dizayner byurolari yaratildi. Shunday qilib, Yangi kasb dizaynga hos nazariy kontseptsiyalari va tashkiliy tarkiblar yaratildi.

*1. Adolf Loos – evropa funksionalizmni asoschisi.* Mashinaga sajda qilishni – Raytning teoretik asarlarni markaziy mavzusi – Evropa XX asr boshida qo’shilgandi. Ar nuvo o’z pozitsiyasini yuqata boshladi. Vena me’morchilari chiziq uslubida ishlab, avangardga yaqinlashishdi.

Dizaynni nazariyasini rivojlanishga vena me’morchisi Adolf Loosni ijodi, va ayniqsa uning bahs maqollalri sabab bo’lgandi. Ularda Loos zeb –ziynatga ortiqcha zur berilishni tanqid etardi. 1908 yildagi “Naqsh va jinoyat” maqolasida printsipial axamiyatga ega bo’lgan. Estetik maqsadga erishish uchun naqshdan voz kechib Loos yozgan: “Naqsh bizning madaniyatimiz bilan organik birlikni yo’qatib, uni ifoda etish vositasi bo’la olmaydi – uni utmishi va kelajagi yo’q”; u faqat “ish kuchini ko’p talab qiladi va materialni ortiqcha sarf etadi”.

Bu erda Loos juda muhim fikirni bildiradi, ya’ni sanoat buyumlarni va ularni tashqi ko’rinishini ko’p vaqt ishlashi: “buyum Shaklini qoniqarli hisoblanishi uchun u bilan biz ko’p vaqt davomida foydalanish mumkin”. Uni fikri bo’yicha kostyum pustinga nisbatan modadan tez chiqadi, balga oid qo’ylak esa – faqat bir marotaba kiyilib, o’z Shaklini boshqa buyumlarga nisbatan tez o’zgartiradi.

Loosni mashinaga sajda qilish radikal ishonchi, nofunktsional bezaklardan voz kechishi Germaniyada nemis Sanoat birlashmasi Verkbundni yaratilishiga olib keldi.

2. *Germaniyada Verkbund*. Avval mashinalarga va industrializatsiyaga befarq qaralishi ularni keng tan olinishi bilan aylandi. XX asr chegarasida xunarmand va dehqonlar mamlakati qoliq Germaniyada keskin o'zgarishlar ro'y bergandi. Agar 70 yy. sanoat sohasida boshqa mamlakatlrga etib olish intilish bo'lsa, asr chegarasida esa Shunday intilish estetik rivojlanish sohasida bo'lgan. Germaniyada boshqa mamlakatlaridan talqid etilgan ilg'or g'oyalar tez tadbiiq etilgandi, badiiy avangard ko'rgazmalari namoyish etilgandi, mamlakatga taniqli me'morchilari taklif etilgandi. Metsenatlar paydo bo'ldi. 1899 yilda gertsog Ernst Lyudvig Gessenskiy uy va ko'rgazmalar binosini qo'rish uchun Yozef Olbrixni taklif etgandi. 1902 yilda Saksoniya gertsogi Veymarda amaliy san'at maktabini tashkil etishga belgiyali Anri van de Velden taklif etgandi. 1907 y. Umumiy elektr kompaniyani prezidenti Ratenau kompaniyani badiiy direktori lavozimiga Peter Bernesni taklif etgandi.

1907 yilda Myunxenda sanoat maxsulotlarni sifatini kutarish uchun Germaniyada Verkbund ("korxonalar birligi") tashkil etilgandi. Bu birlik badiiy–sanoat ustaxonalarni, o'rtacha ishlab chiqarish korxonalarini va savdo–sotiq muassasalrni, rassomlarni va me'mochilarni birlashtirdi.

Germaniyada Verkbundni tashkil etilishi ingliz "Xunar va san'atni birlashishi uchun harakat"ni ta'sirida bo'lgan. Birlashmani muhim farqi zamonaviy sanoat ishlab chiqarish shartlariga orientatsiya etishdir. Verkbund industriyani reforma etish yo'llarni qidirgandi. Uning ustaviga ko'ra asosiy maqsadi "industrial Shakllantirishni san'at, xunarlar va sanoat bilan birlashuvi". Nemis mollari jaxon bozorida raqobatdosh bo'lishi lozim edi. Sanoat mollari badiiy talablariga rioya bo'lishi, sifatli, oddiy va ishchilarni oyilaviy hamyoni kutaradigan narhlarda bo'lishi lozim.

1908 yilda Verkbundda 489, 1912 y. – mingdan sal kamroq, 30 yy. –3 mingdan ko'proq a'zolari bo'lgandi. Asta–sekin zamonaviy sanoat ishlab chiqarishni tan olgan barcha nemis me'morchilari va amaliy san'at rassomlari Verkbundga kirishdi.

Verkbund tashkil etilganidan uch yildan so'ng xalqaro ko'rgazmalarida o'z eksponatlarini namoyish etgandi. Ularning Shakli zamonaviy sanoat ishlab chiqarish mantiqasini inobatga olgandi. Texnikaviy buyumlar Shaklini estetik mohiyati va standartizatsiyani san'atga ta'siri to'g'risida munozaralar har yilgi Verkbunddagi kongresslarida o'tqazilardi.

Mutezius "Amaliy san'at" kitobida rassomlar dekorativ naqsh ustalaridan texnikaviy Shakllarni ijodkolariga aylandi, ularni oldida mashinada ishlab chiqarish talablariga mos Yangi Shakllarni yaratish vazifasi turgandi. Mutezius iste'molchida Yangi didni tarbiya etilishga kitobida ahamiyat bergan.

Artur Van de Velde Muteziusni fikrlariga qarshi chiqqandi. U loyihalovchini individual ijod tarafdori edi. Bu munozarani birinchi jahon urshi tuxtatdi.

Birinchi jaxon urshdan keyin Verkbund ishchilar uchun arzon kvartiralarni va uy uchun jixozlarni loyihalash bilan Shug'ullandi.

Germaniyada Verkbundni tashkil etilishi badiiy Shakllantirish o'zgacha chegara bo'ldi. Undan keyin modern uslubidan zamonaviy sanoat dizayniga utildi.

### 3. Peter Bernes va kompaniya AEGning badiiy uslubi.

Germaniyada buyum ijodni nazariyasini rivojlanishida, san'atni sanoatga tadbiiq etishda Peter Bernes mahsus joyni egallaydi. Rassom amaliyatchisi dizaynga rangtasvir va grafikadan kelib, industrial jamiyatda loyihalovchini oldiga qo'yilgan Yangi vazifalarni birinchilar qatorida sezdi. Texnika hozir zamonaviy uslubni aniqlaydi.

Butun jaxon elektro-texnik kontserni AEGni boshlig'i Emil Ratenau taqdimi bo'yicha 1907 yilda Peter Bernes uni badiiy direktori bo'ldi. 1907-1914 yy. P.Bernes AEG kompaniyani badiiy uslubini yartgan. U katalog, preyskurantlar, elektropriborlar, namoyish stendlar, korxonalar va ishchilar uchun uylarni loyihalagan. Buyumlarni iste'molga oid xossalarini asosiy deb hisoblagan. Oddiy va nafis bezaklarini, sof geometrik figuralarni qo'llab, P.Bernes texnikaviy mahsulotlarni Yangi go'zal dunyosini xosil qildi.

Shaklni geometrizaratsiyalash, uni aniqligi - buyum chiqarish jarayonni texnikaviy aniqligini va uni sotsiomadaniy belgisi bo'lgan. Bernes ochgan usul texnik talablarni plastik echimga aylantirish uni katta qobiliyati egaligini bildiradi.

Berenes yaratgan dastur "firma uslubi"ni birinchi dasturi bo'lgan va bugun dizanerlar faolyatida etakchi instrumenti bo'ldi.

P.Bernesni g'oyalari nemis estetikasida, Baxauzni ishlarida, taniqli me'morchilar – P.Bernesni shogirdlari: V Gorpius, Lyudvig Mis der Roe, Le Korbyuze ijodida rivojlangandi.



#### Nazorat savollari:

1. Adolf Loos – evropa funktsionalizmni asoschisi.
2. Germaniyada Verkbundni asosiy vazifalari.
3. Peter Bernes va kompaniya AEG badiiy uslubini ta'riflang.
4. Amerikan funktsionalizmni asosiy tomonlarini ta'riflang.

### 9- mavzu: XX asr boshida san'atda badiiy yo'nalishlar.

#### Reja:

1. Abstrakt san'atni tug'ilishi.
2. Kubizm.
3. Futurizm.
4. Abstraksionizm.

Ikinchi jaxon urshi payitida badiiy ijod markazi Germaniya va Frantsiyadan neytral mamlakatlariga kuchgan. Lendeneda, Gollandiyada, xaykaltarosh, me'morchi va grafiklar guruhi "De Steyil" (1917 yil uslubi) nomli jurnalni tashkil etishdi. Faqat to'g'ri chiziqqlar oq va qora ranglarni va b. qo'llaydigan Yangi abstarakt uslubni rivojlanishiga jurnal sabab bo'lgan. Kubizmni mantiqiy davomi sifatida bu nazariyani yo'nalishini Pit Mondrian yaratgan.

1. *Abstrakt san'atni tug'ilishi.* Sanoat inqilobi eski tartibni buzdi. Yangi asr boshida insonning bilimlar, amaliy faoliyat va madaniyat sohasidagi eski haqiqat keskin qaytadan ko'rib chiqildi. Siyosiy va ijtimoiy reformalariga talab Rossiyada (1917) va Germaniyada (1918) chap partiyalarni tashkil etilishiga olib keldi. Fan va texnikada misilziz ixtirolar qilindi: Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, Markonini simsiz telegrafi, Bentsni benzin avtomobili, aka uka Raytlarni xavo parvozlari, Fordning konveyeri, kinematograf.

Madaniyat sohasida XIX asrdagi avangard xarakatlari asrlar aro yaratilgan qonun va qoidalarni fosh etgandi. Rassom avangardistlar esklikdan voz kechib, Yangi zamoni ruxini aks etadigan mutlaqo Yangi echimlarni qidirishgandi. O'zgarishni harakatlantiruvchi kuch, Yangilanish – eng muhim maqsad bo'lgandi. Ba'zi rassomlar, xattoki, originalroq bo'lishi uchun o'z ishlarini avvalgi sana bilan belgilashardi. Yangi yo'llarni qidirish jarayonida rassomlar go'zallik, Shakl va fazo, syujet va kolorit tasavvurlaridan Shubhalangandi, ular intellekt, sof fahm va xisgaga berilib ketgandi.

Pablo Pikasso zamonaviy abstrakt san'atni asoschisi deb hisoblanadi. 1907 yildagi "Avinon qizlar" asari birinchi kubistik asari bo'lgan. Odam tana tasvirini qismlarga bo'linishi rangtasvirda Yangi usul bo'lgandi. Kubistlar fazoni illyuziyasidan voz kechishgan.

2. *Kubizm.* Kubizmni ixtirochisi sifatida Pablo Pikassoni hisoblashadi. Ammo kubizm alohida shahsnini ixtirosi emas, balki ko'p rassomlarni qidirishlarini ifodasidir. U vaqtni aksi bo'lgan. Olimlarga o'xshab, rassomlar oddiy klassik fazo va xajm kontsepsiyalari bir soha bilan cheklanganligini anglashdi. Kubistlar buyumni tashqi ko'rinishini bir tomonini tasvirlashga intilmagan; ular uni ichki tuzilishini tuShunish uchun aylantirib ko'rishgan. Kubistlar buyumlarni nisbiy, ya'ni bir necha nuqtai nazardan, qarab chiqardi. Kubist buyumlarni baravariga uch tomonini ko'radi – teppasini va pastini, tashqdan va ichidan. Fazoni uch ulchamiga to'rtinchi ulchamni qo'shishdi – vaqtni.

1910 y. kubizm uslubiy yo'nalish sifatida astoydil etildi. Pikassoga bir qator rassomlar qo'shildi, ularni qatorida Jorj Brak bo'lgan. Birgalikda ular kubizmni keyingi bosqichini "sintetik" yoki "kollaj" (frants. "collage" - yopishtirish texnikasi) kubizmni paydo bo'lishiga asos solishdi. Pikasso va Brak nartyurmortlarni har xil materiallaridan parchalarni yopishtirib, bir necha chiziqlar yordamida kompozitsiyani yakunlashardi. Ular kompozitsiyani arqon, yog'och parchalari, temirdan va b. yaratishardi. Kontsepsiya, mazmun, ma'no xunarmandni ustaligidan ustunlik qilardi. Ularni eksperimentlarini rassom kubistlar davom etgandi.

3. *Futurizm.* Ilk bor Pikasso va Bark yaratgan kubizm an'anaviy natyurmort janrida, portretida formal metod sifatida o'ylangandi. Boshqa rassomlar esa Yangi uslubda texnikani geometrik aniqligi zamonaviy xayotni dinamizniga moslashtirish, mashinani go'zalligini tarannum etish imkoniyat borligini ko'rishgandi.

Italiya rassomlar guruhi asarlarida mashinaga sajda qilish avjiga chiqqandi. Ular futurizmga sig'inishardi. Birinchi "Futurizm manifestida" (1909) Filippo Tommazo Marinetti aytgan: shomoldek uchgan avtomobil unga klassik haykaldan ko'ra ko'proq taassurot beradi. U sanoat, tezlik davrini yaqinlanishini e'lon qiladi, fabrika, qo'rilish, lokomotiv va aeroplanni to'xtatib bo'lmaydigan energiyasini ma'qullaydi.



Kubitstlar ishlatgan usullarni o'zlashtirib, futurist-rassomlar o'z asarlarida erkinlikni va xaykallarda dinamikani va zamonaviy industrial shaxarni gumburlashini tarranum etishgan. Futuristik rangtasvir, haykaltaroshlik va me'morda ikki Shaklda harakatni ifodalash yotgan: "ichga kirish" va "ayni bir vaqtda yuz berish". Futurizm birinchi urush payitida fosh bo'lgandi. Ammo ularni merosini Frantsiya, Amerika va Rossiyada davom etgandi.

4. *Abstraksionizm.* Kubizm printsiplarini yaratib, Pikasso va Bark abstraksiyagacha etmadi. Agar Leje va Delone o'z asarlarida abstraksionizm ostonasiga etgan bo'lsa, Vasiliy Kandinskiy va Kazemir Malevich asarlarida rangtasvir tili buyumsiz va Shaklsiz bo'ldi. V.Kandinskiyni ishida "San'atda ma'naviylik" (1910y.) o'z eksperimentlarni natijalarini nazariy asosladi. Uni fikri bo'yicha san'atni asosiy maqsadi rassomni ichki dunyosini ifodalash. Bu fikrga nemis rassomlar Frants Mark, Avgust Makke va Paul Klee qo'shilgandi. Ular Myunxenda V.Kandinskiy bilan birgalikda Blau Reiter (Kuk chavandoz) guruhni tashkil etishgan.

Mutlaqo buyumsiz "Neoplastitsizm" uslubni Piter Mondrian (1872-1944 yy.) kubizm ta'sirida yaratgan. Neoplastitsizm kontseptsiyasiga ko'ra uch o'lchamli xajm Yangi plastika elementiga, ya'ni tekislikka o'tqazish. Mondrian ob'ektni polotnoda tasvirlashdan voz kechgan. Uning ijodida asosiy element sifatida sof rang va tekslik, ularni muvazonati va ichki nisbatlari bo'lgan. Uning fikri rangtasvir sof rangli (qizil, sariq, moviy ularga qora va oq ranglar qo'shiladi) teksliklarni taqsimlash va qarshi qo'yishga asoslangan.

Mondrianni ijodi Shakl bilan Shug'ullanadigan mutahassislarga ta'sir etdi – me'morchilar, dizaynerlarga.



#### Nazorat savollari:

1. Abstrakt san'atni tug'ilishini sababi.
2. Kubizm badiiy yo'nalishini asosiy tomonlari.
3. Futurizm badiiy yo'nalishini asosiy tomonlari.
4. Abstraksionizm badiiy yo'nalishini asosiy tomonlari.
5. De steyl gruxini ijodiy yo'nalishi.

#### 10-mavzu: 20 - 30 yy. Dizaynini birinchi maktablari. BAUXAUZ 1919-1933 y.

##### Reja:

1. Tarixga ekskurs.
2. BAUXAUZ 1919-1933 yy. Pedagogiktamoyillar.
3. 1925-1932 yy. Bauxauz Dessauda.
4. 1932-1933 yy. Bauxauz Berlinda.

Bauxauz – jaxon badiiy madaniyatida yirik voqea, zamonaviy dizaynni Shakllantirish asochisi bo'lgan, u Shaklni oddiyligini va ratsionalligini targ'ibot

etgan, Shakllarni go'zalligi va badiiy ifodaligi ularni amaliy kerakligidan kelib chiqishi kerakligini tasdiqlagan.

Bauxauzni asoschisi Valter Gropius o'qituvchi va o'quvchini birligini tashkil etishga intilgan va badiiy ijodni barcha turlarini birlashtirishga intilgan. Bauxauzni etakchi pedagogik printsiplari – o'qitish va xunarni biriktirish. Rassomlar va xunarmandlar orasida printsiplial farq yo'q. Rassom –xunarmandni eng yuqori darajasi.

**1. Tarixga ekskurs.** Bauxauzni paydo bo'lishi va tiklanishi birinchi jaxon urushidan keyin ijtimoiy o'zgarish bilan bog'lik. Bauxauz tashkil etilgan 1919 yilda Germaniya iqtisodiy inqirozga uchragandi. Boshqa mamlakatlarga nisbatan orqada qolganligi maxsulotini raqobatdosh qilishga intilgandi. Ularni sifati juda past bo'lgan. Shuning uchun sanoat mahsulotlarni Yangi Shakllantirish printsiplarni qidirish kerak edi. Bauxauz tashkil etilgan birinchi kunlaridan boshlab, konservativ meshchanlardan va tuntarilgan monarxiya tarafdorilaridan chetlashishga majbur bo'lgandi. Veymarda 6 yil ishlab, 1923 yilda Desauga kuchishga majbur bo'ldi. Ammo, etti yildan keyin hokimlikni natsistlar egallagandan so'ng 1932 yilda Bauxauz Berlinga kuchdi va 1933 yilda fashizm g'alaba qozongandan so'ng o'z faoliyatini batomom tuxtadi.

## **2. BAUXAUZ 1919-1933 yy. Pedagogik tamoyillar.**

1919 yili Germaniyaning uncha katta bo'lmagan Veymare shahrida "Bauxauz" ("Qurilish uyi")ga asos solindi. Bu maskan mamlakatda tashkil etilgan ilk dizaynerlik o'quv muassasasi hisoblanib, sanoat va ishlabchiqarish korxonalariga rassom kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan. Maktab uning tashkilotchilari ta'biri bilan aytganda, har tomonlama mukammal, ham badiiy, ham ma'naviy jihatdan etuk mutaxassislar tayyorlagan.<sup>4</sup>

Ma'lumki, avvallari maktablarning badiiy-ijodiy imkoniyatlari cheklangan edi. Muassasa boshlig'i sifatida uning asoschisi, iste'dodli olmon arxitektori Valter Gropius, talaba Peter Berens sa'y-harakatlari bilan maktab qisqa fursat ichida dizayn sohasidagi metodik markazga aylanib ulgurdi. Maktabda XX asr boshlarida yashab ijod etgan etuk professorlar, madaniyat xodimlari, me'mor va rassomlar faoliyat ko'rsatishdi. Jumladan, tajribali me'morlardan Mis van der Roe, Gannes Mayer, Marsel Breyer, rassomdan Vasiliy Kandinskiy, Paul Klee, Lionel Feninger, Pit Mondrian ana Shu muassasaning etakchi mutaxassislari edilar.

Maskanda faoliyatning dastlabki yillarida amalga oshirib bo'lmaydigan g'oyalar hukm surgan. Me'morchilikka esa ijtimoiy ehtiyojning bir turi sifatida qaraldi. Yillar o'tib, sanoatning turli sohalari, hunarmandchilik va texnika bir-biri bilan bog'liq degan xulosaga kelindi. Birinchi kurs talabalari maxsus mutaxassisliklar doirasida (keramika, mebel, tekstil va boshqalar) mashg'ulot o'tay boshlashdi. Ta'lim texnik va badiiy jihatdan kadrlar tayyorlashga asoslandi.

Hunarmandchilik yoki o'z ishi bilan Shug'ullanish dizayner uchun muhim edi, sababi, biron-bir nusxa ustida ishlash, uni qiyomiga etkaza olish mutaxassis sifatida Shakllanish imkonini berardi. Albatta, jism ustida ishlashda bo'lg'usi rassom-konstruktorlar muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ham ehtimoldan holi emas, chunki bir tomonlama yondashish zamonaviy ishlabchiqarishda bir necha amallarni bajarish

---

<sup>4</sup>D.Zuparova. N.Karimova. "Dizayn tarixi". O'quvqo'llanma. T. Lesson press. 2015. 98 b.

imkonini cheklaydi. Hunarmandchilik an'analaridan farqli o'laroq, maktabda talaba yagona jism ustida emas, balki sanoat uchun bir necha andozalar yaratish ustida ishlay boshladi.

“Bauxauz” faoliyatida 20-yillar kubizm yo'nalishida ijod qiluvchi mo'yqalam ustalari, haykaltaroshlarni ham ko'rish mumkin. Lekin bu tur ijod bilan Shug'ullanish belgilangan tartib va geometrik Shakllarning buzilishiga olib keldi. Temir va yog'ochdan ishlangan geometrik namunalar kubizmga xos qalin chiziqli va dog'li edi. Masalan, choynak andozalari yarimkonus, yarimaylana, yarimdoira va slindr Shaklida yasalgan.

Jismlarni bir Shakldan ikkinchi Shaklga o'tkazishda soddalashtirish yo'llari hisobga olinmay, birinchi navbatda, ranglar mutanosibligiga e'tibor qaratiladi. Odatda mazkur jismlar sopol loy va keramikadan tayyorlanar edi. Bular modern davri an'analariga mos ravishda amorf ko'rinishga ega bo'lmasin “Bauxauz” maktabida Yangidan-Yangi Shakllar ustida doimo bosh qotirildi (masalan, idish-tovoqlar ustida). Bu jarayon maktab ijodiy faoliyatining yorqin natijasi edi: ayniqsa, mebel sanoatida Yangi-Yangi loyihalar dunyoga keldi (Ritfeld tomonidan yaratilgan yog'och-kreslo, uning o'rindig'i esa Marsel Breyer tomonidan yasalgan). Maktabda talabalar bevosita stanoklarni boshqarish, metall va boshqa texnologiyalarni qayta ishlashni o'zlashtirib bordilar. Eng asosiysi, materiallarni Shaklga solishda uning badiiy-estetik tomoniga alohida e'tibor qaratish “Bauxauz” ta'lim dasturining asosiy tamoyili hisoblangan. Novatorlik faoliyat ham rassomchilikning prinsipiga aylandi.

Ma'lumki, “Bauxauz”dan avvalgi maktabchilik an'analarida rangtasvir va haykaltaroshlikka o'rgatish an'anaviy jarayon edi. Maskanda esa bularning o'zi kamlik qildi, Shu bois qo'shimcha texnik-rassomchilik, tadqiqotlar o'tkazish, ritm, Shakl va proporsiya qonuniyatlarini o'rganish yo'lga qo'yildi. Bu orqali talabalar Shakl va rang yaratishning nozik qirralarini puxta o'zlashtirdilar. Shu tariqa maktab me'morchilik va sanoat mahsulotlari loyihalashtirilishining laboratoriyasiga aylandi.

Maktab ko'rgatgan xizmat Shundan iborat ediki, u o'zida Veymar rassomchilik akademiyasi va Van de Velde maktabini birlashtira qolmay, ma'lum davr ularning an'anasini davom ettirdi. Jumladan, bu an'ana sanoat va hayot talabidan kelib chiqib, qo'l mehnati va hunarmandchilik, haykaltaroshlik, keramika bilan ishlash, oynaga rasm chizishdan iborat.

Maktabda M.Breyer tomonidan loyihalashtirilgan Yangi tur mebellar o'rindig'i loyihasi ishlab chiqilib, sanoatga joriy etildi. Muassasa tarixida uning Dessau degan sanoat shahriga ko'chirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu erda shaxsan Gropiusning loyihasi asosida jahon arxitekturasi oltin fondidan joy olgan “Bauxauz” uchun Yangi inshoot bunyod etildi. Bino o'quv auditoriyalari, ustaxonalar, yotoqxonalar va professorlar turar joylaridan iborat edi. Shuningdek, bu joydagi Gropius xonadonini Breyer kelajakka asoslangan holda zamonaviy loyihalashtiradi. Xonadon shinam, unda havo aylanish tizimi mavjud va maishiy jihozlar bilan bezatilgan. Bundan tashqari, interyerdan oshxona jihozi, yoritgichlar ham o'rin olgan.

Maktabning metall fakultetida mahalliy fabrikalar uchun nusxalar, oboy, temirdan to'qilgan mato loyihalari ishlab chiqildi. “Bauxauz”ga Gannes Mayer rahbarlik qilgan davrlarda talabalarni nazariy jihatdan tayorlashga alohida e'tibor

qaratildi. Bu borada ommaviy talab va taklifni o'rganish uchun sotsiologiya va iqtisod fanlarini chuqur o'zlashtirish zarurati tug'ilgan edi. Talabalar ishlabchiqarish jarayoni haqida etarli bilim va ko'nikma hosil qilishlari uchun bir necha bosqichli ta'lim joiz bo'lgan. Ta'limning bunday usuli talabalarga jismlarni Shaklga solish, faktura, to'g'ri ranglardan foydalanish imkonini bergan edi. Bu erda bo'lajak ijodkor faqat o'z qalbi va tajribasiga suyangan, bir so'z bilan aytganda, maktabda talaba har tomonlama etuk ijodkor shaxs sifatida Shakllangan.

“Bauxauz”ning tobora rivojlanishi mahalliy amaldorlarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1930 yili Mayer ishdan chetlatildi. Maktabga ajoyib me'mor Mis van der Roe rahbar etib tayinlandi, ammo oradan ko'p o'tmay, 1933 yilda hokimiyat tepasiga natsistlar kelgach, maskan faoliyatiga barham berildi. “Bauxauz”ning ko'pchilik mutaxassislari, xususan, Gropius, Mis van der Roe, Mogoli Nad mamlakatni umrbod tark etishga majbur bo'lishdi. “Bauxauz” maktabi faoliyatiga baho berishda uning nafaqat dizaynerlar etishtirishdagi o'рни, balki rassomchilik, me'morchilik sohasidagi loyihalashning ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi bo'lganini ham e'tiborga olish zarur. Eng muhimi, maktab tomonidan yaratilgan barcha loyihalar, nusxalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.




V. Gropius. Vaymerdagi “Bauxauz” direktori kabinetini. 1923

3. 1925-1932 yy. *Bauxauz Dessauda*. Bu erda V.Gorpius Bauxauzni Yangi rezidentsiyani loyihalash imkoniyatiga sazavor bo'ldi. Bauxauz kompleksni qurilish dasturiga bosh binoni o'quv auditoriyalari, ustaxonalari, oshxona, mamuriy xonalari, talaba yotoxonalari va o'qituvchilar uchun uylar va ustaxonalari bilan kiringandi. Dessauda Bauxauzni rivojlanish Veymar rejalari amalga oshgandi va ularni ijtimoiy ahamiyai aniqlangandi. Pedagogik tizimini va Shakllantirishni rivojini tiklanishi davom etgandi Yangi ta'lim yo'nalishi – industrial Shakllantirish paydo bo'ldi. Bu davrda sanoat bilan kontaktlar yaqinlashdi. Yangi maktab sanoatga yoritqich armatura, gilam, gazlama va pulat trubalaridan mashhur mebellarni bergandi. 1926 y. oktyabrda Dessauda Bauxauz davlat satxida tan olingandi va unga “Shakllantirish oliy maktab” yuqori unvon berilgandi va o'quvni bitiruvchilarga Bauxauz-diplomi berilishiga xuquq berilgandi. Shunga binoan Bauxauz 7 yil yashagandi. Ammo

Bauxauzga yana tanqid qila boshlashdi. 1928 y. 1 aprelda V.Gorpius o'z lavozimidan voz kechdi va Xans Mayer Bauxauzni Yangi direktori bo'ldi. Bauxauz o'z ishiga revolyutsion ishchilarni siyosiy va ijtimoiy g'oyalarni kiritadi. Germaniyani talabalar kommunistik guruhi hosil bo'ldi. Bular barchasi unglarni tanqidini kuchaytirdi. 1930 yil Xans Meyer siyosiy qarashlari uchun ishdan bushatilgandi va u bir necha o'quvchilari bilan SSSRga kuchgandi.

Me'mor Mis van der Roe Bauxauzni uchinchi direktori maktabni saqlab qolish uchun Bauxauzda siyosiy faoliyatga yo'l qo'ymagandi. Yuzaga kelgan sharoit talabi bilan u xattoki erishilgan ba'zi progressiv yutuqlani bekor qilgan. Darslar yana akademik Shakllarga yaqinlandi, ular ustaxonalardagi ishlarni chekalagandi. Ammo, 1931 yilda ung kuchlar kuchaygani sabali Bauxauzga mablax bermasligi va, xattoki, binosini buzib tashlash maslasi qo'yilgandi. Natijada 1932 y. 1 oktyabrda Bauxauzni faoliyatini tuxtatish va pedagoglarni bushatish qarori chiqqandi.

4.1932-1933 yy. *Bauxauz Berlinda*. Lyudvig Mis van der Roe xususiy institut sifatida maktabni saqlashga o'ringandi. Bauxauzni barcha o'qituvchilar va o'qivchilari Berlinga kuchishdi. Ammo, fashist diktaturasi hokimlikka kelgandan so'ng Bauxauzni taqdiri ayyon bo'ldi. 1931 y. 11 aprelda maktab binosida kommunistik adabiyotni qidirish maqsadida tintuv o'tqazildi. 1933 y. 20 iyulda pedagoglar Kengashi Bauxauz faoliyatini tugatish qaroriga kelishdi.



### Nazorat savollari:

1. Dizaynni birinchi maktablari.
2. Bauxauz (Veymarda) aosiy pedagogik printsiplari.
3. 1925-1932 yy. Bauxauz Dessauda faoliyati.
4. 1932-1933 yy. Bauxauz Berlinda faoliyati.

## 11-mavzu: VXUTEMAS VA VXUTEIN (1920-1930).

### Reja:

1. VXUTEMAS VA VXUTEIN. Tarixiy ma'lumot.
2. VXUTEMASni o'quv maqsadi va tuzilishi.

### 1.VXUTEMAS va VXUTEIN 1920-1830 yy. Pedagogik tamoyillar.

1920 yil 25 dekabrda Moskva davlat oliy rassomchilik badiiy-texnik maktablari (VXUTEMAS) tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad oliy o'quv muassasalarida "sanoatga kvalifikatsiyalangan oliy rassom-ustalar"ni tayyorlashdan iborat edi. Muassasa Stroganovskiy nomidagi bilim yurti va rassomlar etishib chiqadigan o'quv yurtlarining qo'shilishi natijasida vujudga keldi. O'tgan asrning 19-yiliga kelib, oliygoh institutga aylantirildi (VXUTEIN) va 1930 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Yangi o'quv muassasasida badiiy ijod keng quloch yoyib, san'at sohasida badiiy qimmatbaho buyumlar – maishiy texnika ixtirolari bo'yicha samarali ishlar olib borildi. Ta'lim dasturi qisqa fursatda yaratildi. Bir yillik o'quv metodikasi ishlab chiqildi, lekin bu bilan kutilgan natijaga ershilmadi, sababi, badiiy ijod va texnika

doirasida Yangidan-Yangi sohalarning paydo bo'lishi bu ikki tarmoqning alohida-alohidar rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Muassasa faoliyatining dastlabki ikki yilida talabalar umumiy rassomchilik ta'limini o'zlashtirdilar va bunga asosiy bo'lim sifatida qaraldi. Mazkur ta'limda Yangi, qiymatga ega metodik ishlanmalar yaratildi. Bu yo'nalishda tayyorlangan kurs "Bauxauz" bitiruvchilari singari zamonaviy dizaynerlik maktabining barcha tarmoqlarini o'rgangan edi.

VXUTEMAS ma'muriyati jamiyat uchun har tomonlama etuk rassom-ishlabchiqaruvchilar tayyorlash masalasini chuqur va atroflicha o'rgandi. Muassasaning metall va yog'ochni qayta ishlash fakultetlari bo'lajak dizayner yo'lini belgilab berdi. Bu borada Metallni qayta ishlash fakulteti rahbari A.Rodchenko quyidagicha yozadi: "Men bizning sanoatimizga metallni: avtomobil va aeroplanning tashqi ko'rinishidan tortib ikchi qurilmalarigacha badiiy-texnik jihatdan qayta ishlashda o'zining ijodiy salohiyati va texnik bilimlari bilan yondasha oladigan konstruktorlar tayyorlashni o'z oldimga maqsad qildim". Bu esa birinchi sovet dizaynerlarining vujudga kelishiga turtki bo'ldi.<sup>5</sup>

Talabalar kurs loyihasi mavzulari ham xilma-xil bo'lgan: kioska maketi, transformatsiyalanadigan mebel, kichik maishiy buyumlar (lampa, kuldon, idish-tovoq va boshqalar). Bu g'oyalarni amalga oshirish uchun maxsus badiiy-konstruktorlash markazlari – ustaxonalar tashkil etilgan bo'lib, u erda loyiha yaratishdan tortib, amalga oshuvigacha bo'lgan jarayonlarni kuzatish mumkin edi. VXUTEMAS-VXUTEIN tarkibidagi ilmiy-tekshirish laboratoriyalarida badiiy ijod sohasida ta'lim tizimini yaratish borasida tadqiqotlar olib borildi.

1925 yili Parijda o'tkazilgan Xalqaro dekorativ san'at va sanoat yarmarkasida muassasaga o'zining Yangi tadqiq etilgan metod va dasturi, talabalarning uquv-eksperemental ishlari bo'yicha faxriy diplom topshirildi. Sovet ilmiy-o'quv markazi ham "Bauxauz" bilan bir qatorda xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

Shu davrlarda professional monumentalistlar tomonidan dastlabki monumental tasviriy san'at asari Toshkent To'qimachilik kombinati binosiga solingan freska hisoblanadi. U moskvalik rassomlar L.Bruni va M.Radionovlar tomonidan amalga oshirilgan. Bino peshtoqidagi hoshiyada paxta terimi mavzusi aks ettirilgan. Chunki ko'cha devorida derezlar bo'lmagan. Xuddi Shu erda Radionov ham vertikal freska ishlarini bajargan.

30-yillarning boshlarida Samarqanddagi Izo-fabrikada ishlaydigan rassomlar guruhi tuziladi. Ular o'z oldiga monumental-dekorativ tasviriy san'at asarlari yaratishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Ular orasida R.Akbalyan, V.Savin, O.Tatevosyan, N.Kashina va Ch.Axmarovlar bor edi. Ch.Axmarov bir qancha fursat Samarqand shahrida yashagan. Ularning ko'pchiligi VXUTEMAS (VXUTEIN) maktablarini bitirishgan hamda ular monumental-dekorativ tasviriy san'at texnikasi asoslarini yaxshi bilganlar.

Chingiz Axmarov yosh bo'lishiga qaramasdan bolalar bog'chalari va choyxonalar uchun bir qator eskizlar yaratgan edi. Ulardan birida qizil choyxona

---

<sup>5</sup>Heskett J. Industrial Design. London, 1995. 56b. Mazmunmohiyatidan foydalanildi.

uchun (1933 yil) zamonaviy kolxoz hayotini tasvirlaydi: g'oz qatorlari fonida kolxozchi traktor haydab ketmoqda, uning ortidan yosh ayol va oqsoqol qo'lida ketmon, shahdam qadamlar bilan olg'a bormoqda. Rassom mazkur tasvirlarni butunlay siluet tarzda aks ettiradi. Bu esa musavvir naqsh solish uslubini, bezakdorlik va bir maromdagi o'sishni ko'rsatib turibdi.

Tasvir och ko'k bo'yoqda solingan, uning foni devor, tuproq rangida, odamlar Shakli inson terisi rangida tasvirlangan. Ch.Axmarov Shu uslub bilan o'tmish me'morlari tajribalaridan ijodiy foydalangan. Faktura va pishgan g'isht rangi o'rta asr O'zbekiston me'morchilik yodgorliklarini bezash an'nlari bir-biriga uyg'unlashib ketgan.

Monumental tasviriy san'at tashabbuskorlaridan biri musavvir V.Savin bo'lib, u VXUTEIN maktabida monumentalist mutaxassisligi bo'yicha tahsil olgan. 1932-1933 yillarda u buyumlarni yopishtirish orqali Samarqand oshxonalari devorlaridan biriga "To'y – kolxozda va shaharda" kompozitsiyalarini yaratadi.

1936-1937 yillarda gravyura uslubida to'rnatyurmort pannoda non va mevalar tasvirini R.Akbalyan tomonidan Lenin nomli ko'chadagi qahvaxonlardan biri devoriga soladi. Uning rangi oq-qora tasvirda bo'lib, usti jigarrang bo'yoq bilan qoplanadi va bo'yoqlar qiri ostidagi tasvir ochilgach, ajoyib manzara kasb etadi. Xuddi Shu erdagi yana bir binoda R.Akbalyan eskizlari asosida ganch naqsh ustalari K. R.Jalilov va boshqalari Sh.G'ofurov rahbarligida o'ymakorlik ishlarini bajaradilar. Naqshlar bino devori chetlariga, bardyurlariga va peshtoqlariga ishlanadi. Naqshlarda o'simliklarning uslublashtirilgan unsurlari o'z ifodasini topgan. Ular paxta va boshqa o'simliklarning tasviri bo'lib, ko'zacha tasviri bilan kesishgan holda aks ettiriladi. O'ymakorlik naqshlari va o'yib tushirilgan natyurmort suratlar bir-biriga juda mos kelgan, ranglari ham o'ziga xos, oq devorlar, ularning chetidagi hoshiyalari va bardyurlari nimjiranggang fonida yanada ajoyib jozida kasb etgan.

1938 yili R.Akbalyanni Moskvadagi Butunittifoq qishloq xo'jalik ko'rgazmasi Turkmaniston SSR pavilyonini bezash ishlarida qatnashish uchun taklif etishadi. Pavilyon interyeri ganchkor naqshlar va ornamentli pannolar bilan bezatiladi. Ma'lum joylarida ipakchilik, chorvachilik va boshqa mavzular bilan to'ldiriladi. Naqshindor pannolar R.Akbalyan eskizlari asosida uning eski tanishlari bo'lmish samarqandlik xalq ustalari yordamida amalga oshiriladi. Ganchli pannoda rang-bo'yoq qo'llagan rassom bir paytlar Samarqandda o'rgangan ganch-gravyuralar uslubi orqali yanada yorqin asarlarni yaratadi.

Musavvirning yana bir qiziqarli rangtasvir asari Buxoro oblast muzeyining "Paxtachilik" bo'limida joylashgan. Bu muzey o'sha paytlarda XVI asr me'morchilik obidasi bo'lmish Ko'kaldosh madrasasida joylashgan edi. Muzeyning "Paxtachilik" bo'limi keng xonaga joylashtirilgan bo'lib, xona bezaklardan butunlay holi edi. Rassom o'z asarini usti nayzasimon tugaydigan, chuqur vertikal tokcha ichiga joylashga jazm qiladi. Bu ikki tokcha xona burchagining ikki tomonida joylashgan edi. Musavvir paxta yig'im-terim pallasini aks ettirish mavzusini tanlaydi. Suratda harakat ikki bir-biridan ajralib turuvchi planlarda tasvirlanadi: paxta dalasi va dala

shiyponi, bular fon vazifasini o'taydi, oldingi planda esa kolxozchilar qiyofasi namoyon bo'ladi.<sup>6</sup>

Musavvir katta hajm va makonda aks ettirgan asarining fonida voqealarning uzuk-yuluqligiga yo'l qo'yadi. Oldingi planda esa qat'iy va bir butunlik kasb etadi. Qahramonlar etnik jihatdan talabga javob bermaydi, ya'ni paxtakor-kolxozchilar o'zbek millatiga mansub emasdek ko'rinadi. Qolgan o'rinlarda kolxoz hayoti, o'sha zamon muhiti, buyum va boshqa erkin detallar (qismlar) orqali aks ettirilgan. Muallifning aytishicha, asarlar jigarrang, tillarang va yashil gammalar yordamida moy-bo'yoq bilan bajarilgan. Ular oq ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan devorlarga juda mos bo'lib tushgan. Bular dastlabki O'zbekiston dizaynerlari sifatida tilga olinadi.

Moskvadagi Butunittifoq qishloq xo'jalik ko'rgazmasining O'zbekiston SSR pavilyonini tashkil qilish ishlariga eng yaxshi me'mor va amaliy san'at ustalari, etuk musavvir-monumentalistlar safarbar qilingan edi. Ijodkorlar oldida birinchi marta san'at va arxitektura uyg'unligi masalasini hal etish vazifasi turar edi. Loyihaga ko'ra, respublikada qishloq xo'jaligining gullab-yashnaganligi aks ettirilishi lozim edi. Arxitektura ansambli markazida yarimdoira Shaklidagi gumbazli binoning baland ustunlari, kalonnalari bo'lib, ular naqshlar bilan bezatiladi. Ustunlar o'rtasida favvorali hovuz joylashtrilgan. Pavilyon to'rtta haykal bilan bezatilgan. Oldingi planda Manuylovaning "dutorchi" va "doirachi", ichkariroqda esa Strazdin va Kuchislarning qoraqalpoq va o'zbek ayollari qo'lida meva to'ldirilgan savat ko'targan holdagi haykaltaroshlik obrzlari qad ko'taradi. Pavilyonning barcha ichki bezaklari kolxoz tuzumi g'alabasi g'oyasiga bo'ysundirilgan.

Pavilyondagi eng o'ziga xos bezak unsurlari ganch o'ymakorligi uslubida bajarilgan surat va panno hisoblanadi. Ularni xalq ustasi usta Shirin Murodov, Yoqubjon Raupov, Olimjon Qosimjonov, Maqsud Qosimov va boshqalar amalga oshirganlar. Ayniqsa, O.Tatevosyaning "Uzum pishig'i" pannosi o'zbek eri saxovatini aks ettirib, ko'rgazma zaliga uyg'unlik kasb etgan.

Bir qator me'mor, san'atshunos va rassomlar o'z oldiga sanoatga tobora kirib kelayotgan san'atni yanada rivojlantirishni maqsad qildi. Bundan odamlar "sanoatchilar" nomi bilan mashhur bo'lib, ular tufayli Yangi g'oyalar amalga oshdi, lekin mamlakat xo'jaligidagi o'zgarishlar muassasa faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Markaz xodimlari kiyim-kechak va mebel sohasida ham loyihalarini amalga oshirishi mumkin edi: bu paytda mazkur ishlar e'tibordan chetda qoldi va amalga oshirilmadi. Tubdan vaziyatning o'zgarishi markaz mutaxassislari orzularini sarobga aylantirdi, chunki rassomlar texnik jihatdan Yangi jarayonga tayyor emasdi. Bu esa muassasa faoliyati sustlashuviga olib keldi.



### Nazorat savollari:

1. VXUTEMAS VA VXUTEIN faoliyati bo'yicha tarixiy ma'lumot.

<sup>6</sup>D.Zuparova. N.Karimova. "Dizayn tarixi". O'quvqo'llanma. T. Lesson press. 2015.130b/



2. VXUTEMASni o'quv maqsadi va printsiplari.
3. VXUTEINni o'quv maqsadi va printsiplari.

## **12-mavzu: Ikkinchi jahon urushdan oldingi uslubiy yo'nalishlar.**

### **Reja:**

1. 1. Ziddiyatlar davri
2. Internatsional uslub.
3. Art- deko uslubi. Frantsiya.
4. Art-deko internatsional uslub
5. Moda sohasida Yangiliklar . “Ot Kutuyur”.

1. *Ziddiyat davri.* 1920-30 yy. djaz davri deyishadi. Bu afroamerikan qabilalar va boshqa folklor oqimlarida paydo bo'lgan musiqa Shakli. O'z vatani Nyu-Orleanda djaz AQSHda keng tarqaldi va Evropaga utdi. Musiqa bilan birga AQSHdan Evropaga amerika rakslar va kinolar keldi. AQSH kinolari Evropa xalqlarni turmush tarziga, modasiga, dizayn va odob ahloqiga ta'sir etgandi. Bu davr faqat ijtimoiy-qurilish davri bo'lmasdan, balki buyuk moda namoyondalarni faoliyat etgan davri bo'lgan (Koko Shanel, Dj. Lanven). Ular zamonaviy turmushni stilizatsiya etishgan. Shakllantirish faqat ratsionallik va progress ramzi bo'lmasdangina, balki iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ramzi bo'lgan. Ayollar viktorian odob ahloqlardan voz kechib, erkaklar bilan baravarriga zamonaviy hayotda ishtiroq etishgan. Plakatlarda avtomobilni boshqarayotgan ayol XX asr ramzi bo'ldi. Tezlik, avtomobil va jinslarni tengligi birikmasi reklamani asosi bo'lib qoldi. Stilizatsiya etilgan gullar, ayollar, favoralar, davr energiyasini ifoda etgan geometrik Shakllar, zig-zaglar, chaqmoqni urnini egalladi.

2. *Internatsional uslub.* AQSHda Frenk Loyd Rayt Evropada Adolf Rossi va Peter Bernes Yangi Shakllantirish usullarni boshlashgan. 1920 yy. dizayn internatsional uslubga aylandi. Bauxauzni funktsional Shakllari internatsional uslubi bo'ldi. Le Korbyuzeni “Vers une architecture” kitobida geometrik fasad va planli baland inshootlarni qurilishni ma'qo'llagandi. Me'morchilikka kabi 20 yy. oxirida mebel loyihalanganda aniqlik, nafislik va ratsionallikni targ'ibot etib, dekorativ elementlaridan voz kechishgan. Bauxauzni peshqadamlari AQSHga emmigratsiya qilingani bois, 1930 yy. industrial uslubni rivojlanishida AQSH asosiy rol o'ynaydigan bo'ldi. Zamonaviy Shaklanish Yangi tendentsiyalarni rivojlanishida Nyu-Yorkdagi Zamonaviy san'at muzeyi o'z ko'rgazmalari va konkursarlari bilan peshqadamlikni egallaab oldi.

3. *Frantsiyada Art-Deko.* Frantsiya iqtisodiy hokimiyat va yuqori turmush tarzini namoyish etadigan dekorativ uslub rivojlangandi. Undan tashqari jahon bozorida qat'iy raqobat sharoitida frantsuz professionallari o'z yo'lini qidirishga intilgandi. Verkbunda (Germaniya) qarshi konservativ yo'naltirilgan “Frantsiya san'at kampaniyasi” tashkil etilgandi. 1925 yilda Parijda “Zamonaviy sanoatda Art-Deko ekspozitsiyasi” nomli ko'rgazma ochilgandi. Shundan dabdaba uslubi “Art-Deko” nomiga ega bo'ldi. “Art-Deko”ni Shakllantirish usullari “Zamonaviy

harakat” maqsadlariga qarama-qarshi edi. Ular maxsulotni ommabop ishlab chiqarishdan voz kechib, qo’lda ishlangan eksklyuziv buyumlarni ishlab chiqarish tarafdori bo’lgan. Shunday buyumlarda qimmatbaho materiallar qo’llangandi: ilon terisi, bronza, kristallar. Keyinroq ular zamonaviy materiallar (pulat, shisha va plastik) bilan kombinatsiya qiladigan bo’lishdi. O’z asarlarida Art-Deko Shakllarni yaratganda Ar-Nuvo namunalari va tarixiy davr va ekzotik madaniyatlari bilan ilhomlangan. Ularni yaxshi ko’rgan Shakllari uchburchak, romb, 6-8-burchakli geometrik naqshlari bo’lgan. Ularga klassitsizm, Misr, Afrika san’atnini tsitatalarini qo’shilgandi. Demk, Art-Deko ko’p yo’nalishlarni rivojlagandi: nafis-klassik, ekspressiv-ekzotik va turli modernistik variantlarni.

4. *Art-Deko - Internatsional uslub*. 20-30 yy. frantsuz Art-Deko madaniyati Evropa va butun jahonda tarqaldi. Endi Art-Deko taqinchoqlarni ommabop chiqarishga yo’naltirgandi. Bozorda ekspressiv zig-zagsimon Shakli yoki plastmassadan inkrustatsiyalari bilan (fil suyagiga va toshbaqa kosasiga o’xshagan) bezatilgan arzon taqinchoqlar paydo bo’ldi.

5. *Moda sohasida Yangiliklar. “Ot Kutuyur”*. “Ot Kutuyur” (Buyuk moda)ni asoschisi - CHarlz Frederik Vort (ingliz). Uni libos modellari san’at asari kabi bo’lgan. Ammo, shaxsiy buyurtma bo’yicha liboslarni yaratmasdan, u kolleksiyalarni namoyish etadigan bo’ldi. Aynan CH.F.Vort ishlash uchun va modellarni namoyish etish uchun manekenni ixtiro etdi. Kino yulduzlarni, boy sanoatchilarning xotinlarini paydo bo’lishi bilan moda badiiy ijodni muhim sohasi bo’lib qoldi.

XX asr birinchi modeleri va ayollar kostyumini mashhur islohatchisi Pol Puare hisoblanadi. U ayollarni korsetdan ozod qildi. Endi ilk bor ayol o’zi kiyina oladigan bo’ldi. P.Puare xurpaygan soch turmakni, soxta ulama sochlarni va shinonlarni yo’q qildi. U ayollarni o’z tanasini bilishga va yaxshi ko’rishga o’rgatgandi, Yangi modellarni namoyish etib, P.Puare modellari Art-deko uslubida bo’lib, oddiy fasonli pan-barxat, to’r, gul, munchoq, dur bilan bezatgan edi.

P.Puareni reformasi – ayolni ko’pqavtli kiyimlardan ozod qilishi- Koko SHanel faoliyatiga tufayli keng qo’llangandi. G.SHanel har bir modeli 3 asosiy xususiyatga ega bo’lgan – funktsionallik, oddiy go’zallik, chidamlilik. SHanel har xil yoshli, tabiatdan chiroyli va chiroyli emas, har xil qomatli ayollarni kiyintirgan. Uni liboslarida ayollar avtomobilni haydagan, tennis o’ynagan, suzishgan, djaz raqsiga tushgan. Uni klientlari mustaqilligni namoyish etardi va o’z taqdirini boshqirishga intilishgandi. Buyuk madmuazel (Shunday nom faqat malikalarga berilardi) va uni ijodi bunga yaxshi misol bo’ladi.



### Nazorat savollari:

- 1.Ziddiyatlar davrini ta’riflang
- 2.Internatsional uslubni ta’riflang
- 3.Art- deko uslubini asosiy tomonlari.
- 4.Art-deko internatsional uslubni ta’riflang

5. Moda sohasida Yangiliklarni ta'riflang
6. Ot Kutuyur uslubini modada o'rni.

### **13-mavzu: Butun jahon inqirozi.**

#### **Reja:**

1. AQSHda Art-Deko.
2. Dizayn va texnika.
3. Butun jahon iqtisodiy inqiroz.
4. So'yri Shaklni taklid etilishi.
5. Ergonomik dizayn.
6. Dizayner mutahassislikni tashkil etilishi.
7. Organik dizayn.

#### **Butun jahon iqtisodiy inqirozi.**

Urushda g'olib chiqqan mamlakatlar, birinchi navbatda, AQSH iqtisodiyotda oldinga chiqib oldi va 50-yillarning bosh dizayni millatiga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQSHdan Yevropaga zamonaviy harakat sun'iy tarzda import qilindi va "amerikacha dizayn" tushunchasi savdo vositasi sifatida keng yoyildi. Amerikacha hayot tarzi nafaqat musiqa sohasiga, balki tasviriy san'at va Yevropaliklarning kundalik yashash tarziga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Amerika filmlari va reklama Yevropaga g'ozzallik va moda haqidagi Yangi ideallarni olib keldi. "Koka-kola" va "Laki-strayt" Yangicha hayot ramzlariga aylandi.

1. *AQSHda Art-Deko.* Evropani ta'siri bo'lsa ham, Shaklantirish o'z yo'li bilan borgan. Bu erda dizayn iste'molchi talablari va texnikaviy progress tufayli rivojlangan. Iste'mol mollari hammabop bo'ldi, Shunga ko'ra xayot surati tezlashdi.

1925 yilda Parijdagi zamonaviy dekorativ va amaliy xalqaro ko'rgazmalari ta'sirida dizaynerlarni Yangi avlodi "Art-Deko" uslubida zig-zag chiziqlarni qo'llab, buyumlarni yaratishardi. AQSHda "Art-Deko" uslubi o'zgacha "Yulduzlar uslubi" sifatida hammabop bo'lgandi, frantsuz xodisadan butun jahonda tan olgan effektiv uslubga aylandi. AQSHda "Art-Deko", "Djaz modern", "Zig-zag modern", "Suyri modern" (mashinalarni tezligini aksi) uslubi sifatida tanish etidi.

1920 yy. Evropa funktsionalizm g'oyalari bilan AQSHda faqat me'morchilar Shug'ullanardi, ular Bauxauz va Evropa funktsionalistik yo'nalishlarini ta'qib qilishardi. Asketik funktsionalizmdan farqli ravshda naqshga boy Art-Deko me'morida qo'llangandi. Art-Deko uslubida tarixiy Shakllar bilan bezatilgan osmonupar binolar qurilgandi. Zamonaviy harakat g'oyalari Bauxauz rahbarlari emmigratsiya qilganda AQSHga kelgandi.

2. *Dizayn va texnika.* Birinchi jahon urishi Evropani texnikaviy va iqtisodiy rivojlanishini susaytirgan bo'lsa, AQSH esa 1920 yy. juda yuqori texnikaviy darajaga erishgandi. 1930 yy. o'rta sinf aholini uylari texikaviy jixozlari (radiopriyomnik, kir yuvish mashinalari, televizor, muzlatqich) bilan ta'minlangandi. Sanoat va mebel dizayni orasidagi farqi yo'q qilingandi. Yangi materiallaridan ommabop ishlangan maxsulotlar aholini talablarini qondirgandi. 1920 yy. oxirida

dizaynerlar bozorni tahlil etishga o'tishgandi Buyumlarni reklamasi va upakovkasidan tashqari aholini talablarini qondirish uchun ularni tashqi ko'rinishiga ahamiyat berishadigan bo'ldi. Evropada Shakllantirish reformalari ijtimoiy nuqtai nazardan qaralgan bo'lsa AQSHda esa bozor omillari birinchi urnni egallardi.

3. *Butun jahon iqtisodiy inqiroz.* 1920 yy. oxirida ishlab chiqarish quvati kengaygani aholini harid quvatiga mos kelmadi va natijada butun jahon iqtisodiy inqirozga olib keldi. Mol sotilmadi. Shuning uchun buyumlarga yoqimli tashqi ko'rinish berish uchun rassomlar, grafiklar va teatral dekoratorlar sanoat korxonalariga taklif etilgandi. Masalan, 1927 yilda Genri Ford mashhur "T" modelini chiqarmaydigan bo'ldi. 18 milliard dollarni sarf etib, Yangi "A" model avtomobilini chiqaradigan bo'ldi. Yangi avtomobil nafis, suyri Shaklli qilingan edi. Fordning bu tajribasi maxsulotni muvaffaqiyatli sotish uchun dizaynni muhimligini ko'rsatdi. Inqiroz payitda maxsulotni ishlab chiqaradiganlar uni dizaynga etibor beradigan bo'lishdi: avval raqobatdoshlar bilan ko'rashganida, keyinroq esa iqtisodni tiklash usuli edi. Shakllantirish usulini qidirish jarayonida AQSH sanoat dizaynerlari so'yri Shaklga kelishdi.

4. *So'yri Shakl.* XX asrni boshidan aerodinamika bo'yicha tajriba o'tqazishgandi. Baliq va qushlarni harakatini ko'zatib, dizaynerlar tabiy qonunlarga o'xshatib konstruksiyani tuzadigan bo'lishdi. So'yri Shakllar tezlik va, eng avvallo, zamonaviy Shakl to'g'risida fikr yuritishga yo'naltirgandi. Ko'pincha tomchi Shakldagi so'yri Shakl nazariyasi transport texnologiyalarida (tezlikni ko'pytirish uchun) va maishiy buyumlariga dekorativ maqsadida qo'llangandi. Dizayner Raymond Louni fikri bo'yicha bu uslub barcha ortiqchadan voz kechgandi, odamiylikni ramzi bo'lgan va insonni o'yg'unlik va tartiblikka intilishiga javob berardi. So'yri Shakllar progressga ishonch berishi kerak edi.

5 *Ergonomik dizayn.* Genri Dreyfus o'z ijodida odamning xarakatiga katta e'tibor bergan edi. U odam va mashina orasidagi bog'laninish nazariyasini yaratgan edi. Mashina odamni talablariga (harakatlariga) mos bo'lishi lozim deb hisoblagandi. Bu nuqtai nazaridan G.Dreyfus ergonomika va antropometriya nazariyasini tuzgandi.

6. *Dizayner mutaxassisligini tashkil etilishi.* Ko'p dizaynerlar o'z faoliyatida faqat ayrim firmalarni alohida buyurtmalarini bajarish bilan cheklanmasdan, ular ancha olg'a ketgandi. Loyihalash jarayonida ular ishlab chiqarish jarayonlarni, materiallarni o'rganardi. Buyumni tashqi ko'rinishigagina e'tibor bermasdan, uni nimaga muljallanganiga va ishlash jarayonida oddiyiligiga ahamiyat berishgandi.


Dizayner firmalar shtatiga chizuchilarni, me'morchilarni, muxandislarni, marketing bo'yicha mutahassislarni olishadigan bo'ldi. Ular faqat buyumni dizayni bilan Shug'ullanmasdan, upakovka, vitrina, savdo ko'rgazmalari, kommertsiya me'morini dizayni bilan Shug'ullanishgan.

1930 yy. oxirida sanoat dizayni asta sekin odatiy mutahassilikka aylandi. Kampaniyalar faqat erkin dizaynerlari bilan shartnoma tuzmasdan, o'zida doimiy dizayner byurolarni tashkil etishgandi.

Garchi Yangi dizayner kasbi asosida kommertsiya foydasiga intilish bo'lsa ham, dizaynerlarni ideali industrial asrga tashqi tartiblikni va ijtimoiy o'yg'unlikni bahsh etish edi. AQSHdagi ko'p dizayner ustalari professional dizayner bo'lishi uchun kurashish, ijtimoiy didni rivojlanishi kerak deb hisoblashgan. Ularni fikri bo'yicha

jamiyatga dizaynerlarni ta'siri sezirarli edi. Dizaynerni asosiy vazifasi – uni ishtiroq etishi, mahsulotni yuqori sifatli va rentabelli bo'lishiga buyurtmachini ishontirishdirdir.

7. *Original dizayn.* 1930-chi yy. Evropadan zamonaviy badiiy oqimlar rahbarlarini immigratsiyasi AQSHda dizaynni rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ammo, AQSHda Shakllantirishga o'zgacha munosabat bo'lgan. Yangi yaratilgan Shakllar originalligi va fantaziyasi bilan farqlanardi. Organik Shakllar aniq funksional Shakllariga nisbatan, "erkin", Yangi tuShuncha, buyumga o'zgacha tashqi ko'rinishni bahsh etadigan Shakl sifatida tasavvur etgandi. Odam tanasiniga nisbatan engil chiziqlari bilan ishlangan uy jihozlari uchun Yangi zamonaviy Shakllar topilgan. Evropa printsiplariga qarshi AQSHni markazida mollarni harid qilishga yordam berish uchun dizayn instrument sifatida hisoblanardi. Sanoat dizaynida so'ryi va organik Shakllar ko'proq qo'llanardi.



### Nazorat savollari:

1. AQSHda Art-Dekoni o'rni.
2. Dizayn va texnika o'zao birligi.
3. Butun jahon iqtisodiy inqrozda dizaynni o'rni.
4. So'ryi Shaklnita'riflang.
5. Ergonomik dizaynni kerakligi..
6. Dizayner mutahassislikni tashkil etilishini kerakligi.
7. Organik dizaynni ta'riflang.

### 14-mavzu: Urushdan oldingi dizayn.

#### Reja:

1. Texnikani romantikasi.
2. Buyumni Shaklantirishda klassik mavzular.

Sovet Rossiya qoloq bo'lsa ham, rasomlar va ihtirochilar usish darajasida bo'lgan. Aynan rassomlar tufayli Yangi iste'molnchini talablarini qondiradigan Yangi buyumlar paydo bo'lgandi. Shu bilan birga dizaynerlar savodli muxandisni funksiyasini bajarishardi.

1930 yy. standartizatsiya g'oyalari korxonalariga dizayndan borgan va 1920 yy. avangard printsiplari bilan bog'langandi, ularni fikri bo'yicha barcha buyum dunyosini belgilangan Shakl-elementlaridan yartish mumkin edi.

1930 yy. sovet dizayni rivojlanishi uch asosiy yo'nalishgda borgan: Yangi texnikani konstruksiyalash, bezatish san'at va tashabbus texnikaviy ijod va ihtirochilik.

Tanqidiy maqolalarda so'yi Shakllar "burjuaz modasi" deganligiga qaramasdan, aerodinamik Shakllaridan qarorlar bilan voz kechish mumkin emasdi, ular keng tarqalgandi.

1930 yy. ommabop texnikaviy ijod va ihtirochilik bilan faqat muhandis va ishchilar Shug'ullanganmasdan, rassomlar va boshqa kasb namoyandalari ishtiroq etigani. Kelajak texnik orzular, Yangi tezliklar, dengizni o'zlashtirish va b. fantastik loyihalarda amalga oshirilardi.

1. *Texnikani romantizmi* 1930 yy. sobiq Sovet Rossiya texnikasida o'zgacha romantik siymo mavjud edi. Bu syimoni shoirlar va kompozitorlar qo'llashgandi. Mahsus avimarshida qo'yidagi so'zlar etilardi: "Ertakni haqiqat qilish uchun biz to'g'ilganmiz" yoki "Bizga idroq pulat qo'l-qanotni, yurakni o'rniga esa alangali motorni bergan".

Texnikani progressi – bu ijtimoiy progress natijasi va yorqin kelajakka intilish harakati deb o'ylashgan. Buyumlarni texnikaviy mukamalligi ijtimoiy barkamolligi isboti bo'lgandi. Barcha yutuqlar matbuotda tasvirlangandi.

2. *Buyumni Shakllantirishda klassik mavzulari.* 1920 yy. oxirida yuzaga kelgan dizayn tizimida vujudga kelayotgan totalitar rejimi sharoitida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. 1920 yy. tuzilgan yoki o'ylangan g'oyalar va totalitar rejimni mafquriy estetik ideallari bir-biriga mos kelmasdi.

1930 yy. bum muhitiga mafquriy talablar qo'iladigan bo'ldi – ular sinfiy tuyg'usini tarbiyalashi lozim edi.

Ammo, madaniy siyosatdagi o'zgarishlarga qaramasdan, 1930 yy. dizaynda uslub yaratish inertsiyasi saqlanib qolgandi, ya'ni konstruktivizm va funksionalizmga taaluqli oddiy geometrik Shakllarga va konstruktsiya, ranglar kontrasti birikmalaridir.

1934 yilda yozuchilar birlashmasi s'ezdida sotsialistik realizm kontseptsiyasi bayon etilgandi. Dizayn o'zgara boshladi. Har bir yaratilgan asar mafquriy g'oyasini aks etishi kerak edi: texnikaviy detallarda, boshqoq va eman yaproqlarda, lentalarda, yulduzlarda yoki sotsializm davrida baxtli hayotni ifodalaydigan rasmlarda. To'qimachilik naqshda va boshqa san'at turlarida muhim siyosiy mavzular, ya'ni industrializatsiya, savotsizlikni yuqatish, sport bo'lgan. Dizayn siyosat va mafo'uraviy instrumnt sifatida foydalanadigan bo'ldi. 1934 y. konstruktivizm yoki funksionalizmga yaqin maqolalarni chop etish tuxtatilgandi. Shakllantirish asosiga klassitsizm naqshi qo'yilgandi, chunki ular Yangi davlat davlat qurilishiga javob berardi. Xattoki printsiptial Yangi texnikaviy buyumlar klassitk namunalariga o'xshashi kerak edi.

1930 yy. o'rtasida boshqa mamlakatlar dizaynerlari bilan aloqa uzilgandi. Dizayner mutahassisligi yashirin Shaklda rivojlangandi. Dizaynerlar ayrim sanoat turlarida saqlanib qolgandi .



### Nazorat savollari:

1. Texnikani romantikasi qanday ifodalangan?
2. Buyumni Shakllantirishda qanday klassik mavzulari qo'llangan?

## 15-mavzu: Urushdan keyingi dizayn

### Reja:

1. Elitar dizayn. Stayling
2. Yangi materiallar.
3. Dizayner mutaxassisligini rivojlanishi.
4. “Pret-a-porte” yoshlar uslubi.

G'olib davlatlar va eng avval AQSH iqtisodida peshqadamlikni egallaganda va 50-chi yilardan boshlab, dizaynda etakchi millat bo'ldilar. Bauxauzni rahbarlari AQSHga emmigratsiya qilib, baynal minial g'oyalarini u erda davom etishgandi.

1. *Elitar dizayn.* Dizayner kasbida kommertsiya foydasiga intilish bo'lsa ham, XX asrda dizaynerlar industrial tartiblik va ijtimoiy o'yg'unlikni bahsh etishga orzu qilgandi. Xattoki ikkinchi jaxon urush paytida xarbiy loyihalarni ishlaganda, olg'a karashgandi kelajagdagi imkoniyatlarni nazarda tutib. Ammo, urushdan keyn ularni g'oyalari nogumon bo'lgan. AQSH dizaynida Evorpadan kelgan V.Gorpius, Marsel Bayer va Laslo Moxay-Nadyani amerikan dizaynini tanqid etayotgan mutaxassislarini fikriga qo'shilgandi. Ular sof, nokommertsiya san'atni va yuqori ahloq talablar “San'at va xunar” yo'nalishni g'oyalariga yaqin kontseptsiya tarafdori bo'lgan. Kupchilik dizaynerlar sanoatdan qaram bo'lganiga qaramasdan, AQSH dizaynida ikki Shakllantirish tendentsiyalari mavjud bo'lgan. Biri elitar dizayn tarafdori bo'lgan, dizaynerni mafqura burchi – aholini estetik rivojlanishiga yordam berish deb hisoblashgan. Ikkinchilari esa – demokratik qarashlar tarafdori bo'lib, aholi hoxlagan mahsulotni berish va kommertsiya samaradorligini o'ylash kerak deb hisoblashgan. 1950 yy. tanqidchi va nazariyachilari bir necha dizaynerlarni ishlariga san'at asari statusni berishdi, qolganlarini didsiz deb ayblashdi. Faqat bir necha dizaynerlar tanqidchilar va aholini talablarini qondirdi.

Zamonaviy dizayn nazariyachilari dizayn va staylingni biri biriga qarama-qarshi deb hisoblardi. Stayling buyumni tashqi kurinishi bilangina Shug'ullanadi, dizayn esa – funksional vazifalarni echib, buyumni mohiyatini aniqlaydi deb hisoblashgan. Dizayn nazariyachilarni fikri bo'yicha sanoatni Shakllantirish tarixida o'zgacha o'zgarishlar mavjud: dizayn (ratsionalizm) iqtisodiy inqirozga uchraganda olg'a chiqadi, stayling (anti-ratsionalizm) esa – uni usish payitida.

AQSHda usish davri 1920 yy. oxirida Art-Dekoda bo'lgan, strimlayn - 1930 yy. oxirida bo'lgan. 1950 yy. yaxshi Shaklga qarshi biomorfik stayling rivojlangan. AQSHda stayling faqat maxsulotni yoqimli qilish uchungina emas, balki marketing strategiya sifatida qo'llangan, buyumlarni tashqi kurinishini tsiklsimon almashishni tezlashtirish uchun.

2. *Yangi materiallar.* Urushdan keyingi moddiy xomashyo defetsiti sharoitida sun'iy materiallariga e'tibor beriladigan bo'ldi. Plastmasslarni qo'llanishi ko'p buyumlarni tashqi ko'rinishini o'zgartirdi. Pleksiglas oynani o'rniga keldi. Harir folga soyabonda qo'llanadigan bo'ldi. Parashyutlar uchun qo'llangan neylon paypoq sanoatida qo'llanadigan bo'ldi.

3. *Dizayner mutaxassisligini rivojlanishi.* 1950-60 yy. iqtisodiy shov-Shuv davrida dizayner mutahassiligi ravnaq topgandi. Agar urushdan keyingi yillarda dizaynerlar maslahatchi sifatida ishlagan bo'lsa, endi 60 yy. ular firmaga shtat

xodimlari bo'lgan. Muxandislar tomonidan dizaynerlarga avval ishonch bo'lmagani yo'qoldi va ular ijodda muhim rol o'ynaydigan bo'ldi. Mustaqil dizayner firmalar kengaydi. Ular shtatiga chizmachilar, muxandislar, ishbilanmonlar, sekretarchilar, menedjerlar, reklama bo'yicha mutahassislarni olishgandi. Dizaynerlar faqat buyumni Shakllantirish bilangina emas, balki ularni upakovkasi, sotuv zallarn intererlarini loyihasi, vitirinalar, ko'rgazmalar, firma belgilarni, logotiplarni, kantselyar blanklarni ishlashardi. Bular barchasi korporatsiyani imidjini yaratishga muhim rol o'ynardi.

Yirik mustaqil dizayner firmalari murakkab komplekslarni ishlash imkoniyati bor uchun, dizaynni har xil yo'nalishda rivojlanishgiga sabab bo'lgandi.

4. *Yoshlar uslubi. Pret-a-porte.* 1950 yy. modasi yoshlarga bag'ishlandi, yoshlik esa kult bo'ldi. Yangi, cheksiz ixtiroli moda, hammaga ma'qul bo'ldi. Yangi avlod xoxlaganini kiyiyadigan bo'ldi. Urushdan keyingi yoshlar avlodi kiyimida qo'laylikni va o'z fikrini ifodalash imkoniyatini qidirishgandi. Natijada modali, arzon buyumlarga talab kuchaydi. Fabrikalar va kichik firmalar yosh iste'molchilarni talablarini qondirish uchun kiyimni ommabop chiqaradigan bo'ldi. 1960 yy. oxirida chiqarilgan kiyimlarni yarmidan ko'pi 25 yoshdan kam yoshlar sotib olgan. 1950 yy. rok-n-rollni paydo bo'lishi bilan amerikasi ta'siri davri boshlandi. Tor shim "dudochka"ni kiyshan Elvis Presli yoshlarni sajda qiladigan shahsi bo'ldi. Yangi avlod musiqa va raqsni yaxshi kurar edi. Djeym Din va Marlon Brandoga tufayli modaga engi shimarilgan kuylaklar, futbolkalar va djinslar modaga kirdi.

XX asrni o'rtasidan Pret-a-Porte tarixi boshlandi. Bu atama ilk bor Frantsiyada 1947 yilda kiritilgan. 1956 yilda Versalda birinchi Pret-a-Porte caloni ochildi, qayerda minglab aholini ta'minlaydigan moda industriyasini tug'ilishini namoyish etdi.



### Nazorat savollari:

1. Elitar dizaynni ta'riflang.
2. Yangi materiallarni qo'llanishi.
3. Dizayner mutaxassisligini rivojlanishi.
4. "Pret-a-porte" uslubini ta'riflang.
5. Stayling badiiy usulni ta'riflang.

### 16-mavzu: Neofunksionalizm.

#### Reja:

1. "Yaxshi shakl".
2. Ulmda oliy shakllantirish maktabi.
3. Yaxshi shakl va konstruktivizm.
4. Braun uslubi.



Urushdan keyingi 1950 yy. faqat siyosatda tubdan o'zgarishlar ro'y bermadan, balki dizaynda ham keskin o'zgarishlar bo'lgan.

Amerikani yordami tufayli G'arbiy Germaniyani iqtisodi tez usa boshladi. AQSHdagi strimlayn organik Shakllar Germaniyada o'zlashtirildi. Istiqbolli Yangi uslub o'zgacha sanoq boshi ("Nol soati"), Yangi estetik orientatsiya boshi bo'ldi, utmishga bardosh berishga yordam berish uchun.

Germaniyada strimlayn, dinamik hayotni ramzi, barcha iste'mol maxsulotlariga tez tarqaldi.

1. "*Yangi Shakl*". Amerika ta'sirida strimlaynni rivojlanish qatorida, Germaniyada urushdan oldin bo'lgan funktsionaizmni tiklanishiga intilish paydo bo'ldi. Uni lideri Bauxauz bo'lgan. Dessauda (GDR) yana Bauxauz tiklandi.

1947 y. Verkbund tiklangandi, 1951 y. esa Darmshtatda Shakllantirish Kengashi tiklandi, Germaniyada xujalik ministriligi instituti tashkil etilgandi, u Vekbund bilan birga dizaynni rivojlanishiga yordam berishi kerak edi.

Bu dizayn institutlari tarixiy yo'nalishlarni va organik Shakllarni nemis dizayniga mos emasligi uchun funktsionalizm davomchilari bo'lishi kerak edi. Ular "YAxshi Shakl" shioriga rioya qilishardi: Germaniyada Verkbund davrida estetik oddiylik va ortiqcha bezaksizli funktsionallik yaxshi hisoblanardi.

1949 y. Bazel va Ulmdagi ko'rgazmalarni nomi shior "YAxshi Shakl" bo'ldi. Aholi bu atamani tuShunishi uchun 1957 y. Shu nomli kitob chop etildi.

"YAxshi Shakl" – bu faqat estetik baholash emas, balki mafquriy baholash bo'lib, 1970 yillargacha dizaynda asos bo'lgandi mahsulotni oddiylikka, arzonlikka yo'naltirib.

2. *Ulmda oliy Shakllantirish maktabi*. Ulm oliy Shakllantirish maktabi dizaynerlarni tayyorlash uchun ochilgandi. Bir tomondan u Bauxauz g'oyalarini davomchisi bo'ldi, ikkinchi tomondan esa – ko'p boshqa jahon dizayner ma'lumot markaz namunasi bo'ldi. Bu maktabni 1951 yilda Maks Bil ochdi. U sof funktsional dizayn kontseptsiyasi tarafdori bo'lgan. Maktabni ochilishida Bauxauzni birinchi direktori V.Gorpius kelgan. 1968 yilda Ulm maktabi bekildi.

Ta'lim berish usulida Yangi o'qitish usul bo'lgan, ya'ni yig'ilgan haqiqiy materiallar ilmiy, texnikaviy va texnologik bilimlarni tahlili va tadqiqoti asosida qilinishi lozim edi. Ergonomika, sotsiologiya, iqtisod va psixologiyani o'rganish va loyihada foydalanish uchun talabalar ko'p vaqtini sarf etardi.

Ulm dizayn kotseptsiyasi kommertsiyaga qarshi bo'lgan, buyum muhitiga ijtimoiy–insonparvar aspekti bilan o'ziga e'tibor tortgan va 1960– 70 yy. dizaynga chuqur ta'sir etgan.

3. "*YAxshi Shakl*" va *neofunktsionalizm*. Ulm ko'rsatgani bo'yicha nemis dizaynida 1960 yy. uslubiy belgisi funktsionalizm bo'ldi ("yaxshi Shakl"), qaysi dizayn-markzlar Shakllantirish bo'yicha kengashlariga aqida bo'ldi.

Funktsionalizm va texnikaviy aspektlari dizaynda olg'a utdi va dizaynerlar ko'pincha rassom emas, balki muhandis deb tuyuladi. Ergonomika muhim faoliyat turi bo'ldi.

"To'g'riburchak" Shakllar va Ulm fikrlari ommaviy ishlab chiqarishga tadbiq etildi: mablag'ni kam sarflab, buyumlarni modul usulida ishlash ratsional ishlab

chiqarishga imkoniyat berardi. Shakllar endi original bo'lmastan xunik bo'lib qolgandi.

4. *Braun uslubi*. “Braun” firmasi boshqa ishlab chiqarish korxonalar uchun funksional Shakllantirish va namunaviy zamonaviy uslub namunasi bo'ldi.

“Braun” firmasi 1921 yilda tashkil etilgandi. U radioindustriya uchun detallarni ishlab chiqarardi. 1929 y. boshlab, radiopriyomniklarni ishlab chiqaradigan bo'ldi, 1939 y. esa – mini radiopriyomniklarni (batareykada) ishlaydigan bo'ldi.

Braun uslubi – bu bezakni, yorqin rangli dog'larni, materiallarni imitatsiyasini yo'qligi. Bu odmi koloristik gamma, kul ranglar, oq va qora ranglar birikmasi. Bu eng oddiy va minimal vositalar yordamida yaxlit siymoni yaratishdir. Braun uslubi – bu tejamli uslub.

Braunni ilk bor yutug'i – 50 yy. so'yri uslub bilan aholini to'yganligi bilan izohlash mumkin. Iste'molchi Yangilikni talab qilardi. Braunni geometrik oddiyligi va buyumlarni lakonizmi nafaqat oddiy xalqda, balki elitar iste'molchini didiga ham mos keldi.

1957 y. Diter Rams funksionalistik imidjni avjga rivojladi. Uni shiori: “Dizaynni kamchiligi – bu dizaynni ko'pligi”. Mahsulot mayda detallarigacha qadar oddiy, doimo zamonaviy, texnikasi mukammal bo'lishi lozim edi. Braunni buyumlari namuna bo'lib qolgandi va dunyoda tan olingandi.



#### Nazorat savollari:

1. “Yaxshi shakl”ni asosiy tomonlari
2. Ulmda oliy shakllantirish maktabini vazifasi.
3. Yaxshi shakl va konstruktivizmni asosiy tomonlari.
4. Braun uslubini ta'riflang.

### 17-mavzu: Postindustrial madaniyat dizayni

#### Reja:

1. Postindustrial jamiyat.
2. Moderndan Postmodernizmga.
3. Postmodernizmni boshlanishi.
4. Postmodernizm baynalminal uslubi sifatida.

1980 yy. postindustrial jamiyatida avval asosiy mohiyat “Shakl funktsiyaga asoslanadi” degan doktrina barbod etilgandi va ob'ektni ramziy mohiyati amaliy manosi kabi endi muhim bo'lib qolgandi.

Modernni funksional ustunligi urniga pop-madaniyat va ratsionalistik dizaynni turli harakatlari Yangi uslub – postmodernni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Stilistik oqimlar va estetik qarashlarni plyuralistligi ijtimoiy fenomen bo'lgandi.

1. *Postindustrial jamiyat*. “Postindustrial jamiyat” atamasi AQSHda paydo bo’lgan. Amerikan sotsiologi Daniel Bell 1950-60 yy. bu atamani o’zini ma’ruzalarida keng qo’llagandi. 1960 yy. oxirida postindustrial jamiyatni nazariyasi rivojlana boshladi. Uning farqli xususiyatlari ijod, intellektual mehnatni, ilmiy bilim va ma’lumotni ommaviy tarqatish, ommaviy kommunikatsiya vositalarini rivojlantirish, iqtisod tarkibida yordam sohasini, fan, ta’lim, madaniyatni sanoatni va murakkab xujalikni ustidan ustunlik qilish edi. Postmodern jamiyati endi rivojlanishni Yangi bosqichi deb faqat G’arbda emas, balki butun insoniyatda. 1970-80 yy. postindustrial jamiyatni kontseptsiyasi asosan futuristik va ijtimoiyShunoslik nazariya sifatida rivojlangandi. D.Bellni fikri bo’yicha kompyuter markaziy rolni o’ynaydi. Kompyuter texnikaviy inqilobni moddiy va ramziy timsoli bo’ldi. Aynan kompyuter jamiyatni tubdan transformatsiya etadi. Shunday qilib, Yangi jamiyatda ma’lumot va elektron vositalariga muhim o’rin beriladi. Shunga ko’ra, tsivilizatsiyani belgilash uchun atama “ma’lumot jamiyat”, “postindustrial jamiyati” keng tarqaldi.

2. *Moderndan Postmodernga*. “Zamonaviy harakt”ni purizmga tanqidiy qragan pop-madaniyat, 1960 yy.radikal dizaynni turli harakatlari keng tarqala boshlandi. San’at va dizaynda ko’p estetik yo’nalishlari tufayli Shu davrdagi “yaxshi dizayn” yagona yo’nalishiga qarshi Yangi uslubiy oqimlar, iste’molchini didi kengaygandi, tasavvurni ko’p qirraligi, plyuralizmi estetik qarashlari shakillangandi. 1970-80 yy. jamiyatda murakkab ijtimoiy tarkib mavjud bo’lgan, qaysini o’rta, past, yuqori tabaqaga ajratish mumkin emasdi.

Funksionalizm davriga kabi, jamiyatni turi tabaqalarida did va uslub Shunday darajada ko’p qirrali bo’lganki, farqni sezish mumkin emasdi. Shunday estetik qarashlarni va fikrlarni plyuralizmi ijtimoiy fenomen bo’lib qoldi va “zamonaviy xarakat”ga oppozitsion bo’lgani bois Yangi badiiy uslubni paydo bo’lishiga sabab bo’ldi, qaysiga postmodernizm deb nomlandi. “Postmodern avvalgi “Shakl funktsiyadan keyin keladi” postulatni barbod etib, dizaynni “yaxshi” va “yomon”, “yaxshi Shakl”, “kitch” va “buyuk madaniyat” degan qarashlarni yo’qatdi.

Postmodern deyarli siyosiy badiiy yo’nalish bo’lmagan va Shuning uchun dizayndagi radikal oqimlari xalqaro bo’lgandi.


3. *Postmodernni boshi*. Postmodernni ildizlari pop-madaniyatda va dizaynni radiqal oqimlaridadir. “Postmodern” atamasi 1970yy. me’morchilik nazariyalaridan chiqqan. 1966 y. AQSHda Robert Venturini “Me’morchilikda murakkablik va qarama-qrshlik” kitobi chiqqan. Unda u antifunksionalizm tezislarini tuzgan va Shu kitob endi “postmodernizmning bibliya”si bo’lib qoldi.

Badiiy Shakllantirishda postmodernizm monoxrom va ratsional Shakll va “zamonaviy harakat” dogmalarga qarshi dekorativlikka, kitch va shikka elementlarni individual ramziylikka, tarixiy uslublarni o’zlashtirishga olib keldi. Postmodernizm rassomlari o’z g’olarni faqat tarixiy usublari (klassitsizm, art-deko, konstruktivizm) bilan ilhomlasmasdan, balki zamonaviy uslublarini (syurrealizm, kitch, kompyuter grafikasi) ham o’zlashtirishgandi.

1. *Postmodernizm baynalminal uslubi sifatida*. “Postmodern” atamasini ma’nosi bo’yicha har xil fikr bo’lsa ham, dizaynda internatsional uslub rivojlana boshlandi.

1980 yy. sotishga mo'ljallangan bo'yumlar bozorni tuldirdi. Nazariy asoslarda boshlangan postmodern, dizaynda kommertiya madaniyat kontseptsiyasi turida davom etdi va natijada uni bir qismi bo'lib qoldi.

Postmodern loyixalash to'g'risida dizaynda Yangi tasavvurni barpo etdi. XX asrni oxirida postmodernsiz dizaynda Yangi ma'noli va ekologik ahloqli dizanni rivojlanishiga imkoniyat bo'lmasdi.



### Nazorat savollari:

1. Postindustrial jamiyatni asoslari ta'riflang.
2. Moderndan Postmodernizmga.
3. Postmodernizmni boshlanishi.
4. Postmodernizm baynalminal uslubi sifatida.

## 18-mavzu: O'zbekiston dizayn maktabi

### Reja:

1. O'zbekistonda badiiy konstruksiyalashni rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari.

### 1. O'zbekistonda badiiy konstruksiyalashni rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari.

Qisqa tarixiy vaqtda Mustaqil O'zbekiston yuksak dovonlarni oshib o'tdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu kabi o'zbek dizayni ham yosh bo'lishiga qaramay, o'zining go'zalligini olamga ko'z-ko'z qilayapti. Agar qiyosiy darajada baholaydigan bo'lsak, XXI asr dizayni – O'zbekiston tarixining barcha zamonlarida yaratilgan predmetlar olami muhitidan ko'proq bunyodkorlik, iste'molchi talablarini ro'yobga chiqarishga hissa qo'yshanligining guvohi bo'lamiz. Shiddatkor zamon dizayn tariziga ham ko'plab yangiliklar kiritmoqda. Misol uchun, yana bir yangi axborot. "Ria Novosti" axborot agentligi xabar qiladi: "O'zbekiston temir yo'llari davlat hissadorlik kompaniyasi Farg'ona vodiysini mamlakat markazi bilan bog'lovchi temir yo'l qurilishini boshlamoqda. Bu loyihani ro'yobga chiqarishning umumiy sarfxarajatlari 1,9 milliard dollarni tashkil etadi. 2013 yilning oxiriga qadar loyiha ishlari va 2014 yilda esa temir yo'lni qurishga kirishiladi. Inshootni to'rt-besh yilda bitkazish ko'zda tutilgan. Yangi elektrlashtirilgan "Angren-Pop" temir yo'l tarmog'ining o'zunligi 129 kilometrni tashkil etib, Qamchiq dovoni orqali o'tadi. Bu erda ikkita tunnel qurish mo'ljallangan.

Qamchiq dovoni Quramatog' tizmasida bo'lib, dengiz satqidan 1200 metr balandlikda joylashgan. Bu erdan yagona avtomobil yo'li o'tadi.

Temir yo'l qurilishi yo'lsozlar bilan birgalikda o'nlab mutaxassislarni, injener-texnik xodimlarni talab qiladi. Yangi tizim uchun dizaynerlarning ijodiy faolligi qanchalar zarur. Endi o'zbek dizaynerlari va quruvchilari, arxitektor-muhandislari ham mehnat va ijod dovonidan oshishlari tayin.

“Uyg’unlik” ( o’zb.“uygunlik” ) atamasi falsafiy tushunchaga ko’ra, bizni o’rab turgan olamning mukammalligi, Alloh yaratgan mo’jizalarning o’ta mukammal va go’zal, mutanosib va muvozanatda yaratilganligi, inson va uning ruhiyati uzviyligi orqali yaratilgan narsalarning ana shu mukammallik sari intilishi tengsiz nafosatning ildizi demakdir. Uyg’unlik zamonaviy dizayn uslubidir. Mustaqillik yillarida yanada takomillashgan yo’nalish hisoblanib, dizaynning barcha ob’ektlarida qo’llash mumkin bo’lgan universal uslubdir.

Insoniyat o’z tafakkuri bilan hamisha nafosatga va go’zallikka intilib keladi. Odamning yashash tarzi, hamisha yaratuvchilikka intilishi, umuman, sevilizatsiyaning ildizi hisoblanmish nafosat ham insonning yaratuvchilik ijodidan quvvat oladi.

Ko’hna va navqiron Toshkent jamolida, uning o’tmishi, bugungi kuni va kelajagi timsolidagi uyg’unlik barchani fikrlashga, chor atrofga ijodiy nigoh tashlashiga imkon yaratadi. Olam-olam ilhom beradi. Mustaqillik yillarida butunlay yangicha chiroy ochgan Toshkentning bugungi jamoliga boqsangiz, uning eng avvalo, odamlari, ularning hayot tarzi, shaharliklar tomonidan yaratilayotgan inshootlar, madaniy-ma’rifiy maskanlar, ravon yo’llar, ko’priklar, uy-joy binolari va unda yashayotgan odamlarning liboslari, uy-ro’zg’or buyumlari, taqinchoqlari, qo’yingki, shahar va uning odamlariga zeb beruvchi, xizmat qiluvchi hamma narsalar yagona uyg’unlik kasb etaishining guvohi bo’lasiz. Toshkentning o’ta nafosatli shahar ekanligini uning dizaynidan yaqqol sezasiz. Bu, albatta, Toshkent ahlining ijodiy va ilmiy kashfiyotlari va estetik intilishlari, aniqrog’i, ijodiy mehnati natijasidir. Aholi ichki dunyosida va ruhiyatida yuz bergan o’zgarishlarning mevasidir. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ming yillik an’analari, xalqning eng go’zal qadriyatlarini ruhimizdan yashash tarzimizga, bunyodkorlik ishlarimizga ko’chmoqda. U ko’hna obidalarimizga, yangi qurilayotgan zamonaviy binolarimizga boqsangiz binolardagi dizayn, go’yo ularga kiydirilgan libos misoli qadimiy an’alarimizning bugungi kundagi shakliy ifodasi ekanligini sezasiz. Toshkentimizning bog’-rog’lari va xiyobonlariga nazar solsangiz, Bobur bog’larining bugungi kundagi qiyofasi ko’z oldingizga keladi. Shaharning egologik jahatdan uyg’unlashgan yam-yashil, saralangan daraxtlar va gullar bilan bezatilgan jamoli, go’yoki zebo qizlarimizning libosiga o’xshaydi. Prezidentimiz tashabbusi va ijodkorligi bilan dizayn qilingan va bezatilgan Mustaqillik maydonidagi “Orzular xiyoboni” xalqimizning ming yillik ruhiyatini, eng go’zal an’analari, ezgu fazilatlarini o’zida aks ettiradi. Xayolotdan hayotimizga chiqib kelgan mo’jizaga o’xshaydi. Oila va tinchlik ramzi – ark ustidagi laylaklar, bola quchoqlagan ona timsoli, mushkulliklarni engib o’tishga chorlovchi xotira xiyoboni, kelajagimizni aks ettiruvchi binolar o’zining yam-yashil bog’lar ichra nur sochayotgan orzularga mushtarak. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, ichki va tashqi go’zallik libosini kiygan navqiron insonga qiyos.



### Nazorat savollari:

1. O’zbekiston sanoatida san’at asarlari bilan bezash an’anasi.
2. Mustaqillik ma’naviyati va estetikasining odamlar hayotiga ta’siri

## Tayanch iboralarning izohli lug'ati

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi
DIZAYNNING MAQSADI –	inson yashash muhitini, mehnat qurollari va insonning o'zini o'zgartirishdan iborat.	The design purpose
TEXNIKA –	inson faoliyatining sun'iy-moddiy manbalari.	Technics
DIZAYN –	inglizcha “deziqn”, italyanacha “dezegno” so'zidan olingan bo'lib, nafaqat chizma yoki rasm, balki rassom ijodi sohasiga oid barcha murakkab narsalar.	design
FUTURO-DIZAYN –	tarixiy dizayn va kelajakni bashorat qiluvchi dizayn.	futuro design
NON-DIZAYN –	ishlabchiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo, o'quv jarayonlarini tashkil etish.	Non - design
SAYNS-DIZAYN –	ilmiy dizayn.	Sayns - design
FITO-DIZAYN –	tabiat unsurlaridan, gul va o'simliklardan foydalanish orqali yaratilgan dizayn.	Fito- design
REKLAMA DIZAYNI –	tijorat, foyda olish maqsadida bajariladigan hunar.	Design of advertising
ABRIS –	(nem. “adriiss-ocherk” – “chizma”) chiziqli, (konturli) rasm	Abris
AVANGARD –	avangardizm realistik san'atdan aloqani uzgan holda, badiiy did va estetik tushunchalarga zid bo'lgan narsalarni yaratish.	Avant-garde
KOSTYUM DIZAYNERI	dizayn faoliyati yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning maqsadi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi buyumlar olami elementlaridan biri bo'lgan kiyimni loyihalashdan iborat.	Costume designer
KOSTYUM	bu insonning ijtimoiy, milliy, hududiy mansubligini, uning jinsi, yoshi, kasbini aks ettirib turuvchi, yagona g'oya, maqsad va vazifa bilan birlashtirilgan buyumlar va elementlar tizimidir.	Costume
BAUHAUS	1919 yili Germaniyaning uncha katta bo'lmagan Veymare shahrida “Bauxauz” (“Qurilish uyi”)ga asos solindi. Bu maskan mamlakatda tashkil etilgan ilk dizaynerlik o'quv muassasasi hisoblanib, sanoat va ishlabchiqarish korxonalariga rassom kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan. Maktab uning tashkilotchilari ta'biri bilan aytganda, har tomonlama mukammal, ham badiiy, ham ma'naviy jihatdan yetuk	Bauhaus

	mutaxassislar tayyorlagan.	
CONSTRUCTIVISM	sovet san'ati va dizaynidagi yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'nalish 1920 yillarda, eng avvalo, san'at sohasida (arxitektura, bezash va teatr- dekorativ san'atida, plakatlar, noshirlik va baliy konstruksiyalashda) keng qo'llanilgan.	Constructivism
FUNCTIONALISM	zamonaviy arxitektura va dizayn uslublaridan biri sanaladi. Oddiylik, qulaylik, ergonomikaga moslik, to'g'richizikli shaklar, predmetlarning ko'pfunksiyaliligi, bezakli unsurlarning yo'qligi unga xos asosiy xususiyatlardir.	Functionalism
MODERNISM	(fransuzcha "modeme" – "zamonaviy" degan ma'noni bildiradi) Rossiyada, art-nuvo (fransuzcha "art-nouveau" – "yangi san'at") Fransiyada, yugendshtil (nemischa "jugendstil" – "yosh uslub") san'at sohasidagi badiiy yo'nalish bo'lib, XIX oxirlari XX asr boshlari, Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda Germaniyada keng tarqalgan.	Modernism
POSTMODERNISM	dunyoning ratsional tarkib topmagani, jumboq va sinoatga to'la ekanligi g'oyasini ilgari surib, XX asrning 70-yillarida yangi bir oqim sifatida paydo bo'ladi. Bu uslub zamonaviy funksionalizmni inkor etib, turli ekperimentchilar konsepsiyalarini o'zida birlashtirgan edi.	Postmodernism
BREND –	(ing. "brand" – "tamg'a", "belgi") ma'lum uslubda yaratiladigan mahsulot – tovar bo'lib, bozor uchun qadoqlashda, grafika belgilarida, logotiplar va multimediya texnologiyalarida aks etuvchi belgi.	Brend
BRENDING –	tovarlarni yaratish va sotish masalalari bo'yicha ijodiy, marketing va ijtimoiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi fan.	Brending
BRENDBUK –	firma uslubi yo'riqnomasi.	Brendbuk
GRAFIKA –	(fran. "oraphique" – "chiziqli", yunon. "oraph" – "yozayapman", "chizayapman") tasviriy san'at turlaridan biri.	Graphic
JANR –	(fran. "qunre" – "tur") san va adabiyot asarlari turi.	Genre
KOLLEKSIYA –	( lot. "collektio" – "yig'moqlik" ). Bir-biriga yaqin bo'lgan ilmiy, tarixiy va badiiy ahamiyatga molik qandaydir buyumlarni tizimli tarzda yig'ish.	Collection
KOMPOZITSIYA –	(lot. "compositio" – "to'qish", "tuzish", "bog'lash", "qo'shish"). Adabiyot va san'atda badiiy asarning tuzilishi, g'oyaviy va badiiy jihatdan bo'laklarning joylashuvi va o'zaro bog'liqligi. (Arxitekturada esa bir	Composition

	necha binolarning yagona kompozitsiyaga binoan joylashuvi. Tasviriy san'atda polotnoda odam va narsalarning joylashuvi. Kartinada bir markaz borki, u yerni bosh qahramon egallaydi.	
LOGOTIP –	(yunon. “so’zni bosish”) atama XIX asrda ko’p qo’llaniladigan “&” belgisi “logotip” so’zi bilan almashtirildi Misol uchun, “and” so’zi o’rniga “ya” qo’llanilgan. Bu harf terishni tezlashtirgan. Keyinchalik manzil, savdo markasi, bosma shaklni aks ettiruvchi quyma bo’lak.	Logo
LOYIHA (PROYEKT) –	(lot. “projestus” – “oldinga tashlangan”) 1. (hisob-kitob, chizma va boshqalar) u yoki bu inshoot yoki buyum yaratish hujjatlari yig’indisi; 2. Biror hujjatning dastlabki matni; 3. Fikr, reja.	The project
MODEL –	(fran. “modele”, lot. “modulus” – “chora”, “model” deb o’qiladi) tasviriy san’at amaliyotida musavvir biron-bir asar yaratayotgan paytda unga asardagi inson qiyofasi uchun o’z suratini chizdirgan inson. Ko’chma ma’noda esa “model” deb har qanday mavjud yoki predmet-narsani ham aytish mumkin.	Model
ORNAMENT –	(lot. “ornamentum” – “bezak”) ma’lum bir tartibdagi suratlarning qayta-qayta naqshindor aks etishi. Agar u geometrik shakllar asosida tasvirlangan bo’lsa, “geometrik ornament” deb yuritiladi. Ornament yaproqlar, gullar, kapalaklar, hayvonlar, hatto harf va so’zlardan iborat bo’lishi mumkin. Har bir xalqning betakror ornamentlari mavjud.	Ornament
SILUET –	XVII asrda fransuz qiroli Lyudovik XV zamonida moliya vaziri Eten de Siluet bo’lan. U haqida ko’plab kulgili latifalar mavjud.	Silhouette
FAKTURA –	(lot. “faktura” – “bo’linish”) tasviriy san’at va haykaltaroshlikda badiiy asarning ustki material qismi sanalib, voqelikni chin tasvirlash manbasi.	
ESKIZ –	(fran. “esquisse”).Tasviriy san’atda: kompozitsiya unsurlari bilan yaratilgan yordamchi badiiy asar bo’lib, bo’lg’uvchi asar uchun tayyorgarlik uchun solingan tasvirlaridan iborat.	The sketch



## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Лаврентьев А.Н. История дизайна: Учеб. Пособие –М, Гайдарики, 2007.
2. Михайлов С.М. История дизайна. Том 1: Учебник для вузов. -2-е изд. Москва: “Союз Дизайнеров России”, 2002. -270 с.
3. Михайлов С.М. История дизайна. Том 2: Учебник для вузов. -2-е изд. Москва: “Союз Дизайнеров России”, 2003. -270 с.
4. D. Zuparova, N. Karimova “Dizayn tarixi”, O'quv qo'llanma, T. Lesson press 2015

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
8. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. Maria Helena Souto. “The 19 th century world exhibitions and their photographic memories”.Quadern.D'historiya del' Enginyeriya. 2012
10. Gaipova N.S., Abdullayeva Q.M. «Kostyum kompozitsiyasi asoslari». T. «Moliya-iqtisod». 2008.
11. Styles, Periods and Design History. Are you an undiscovered interior Designer? Part 5, 2013
12. Z.SH.Sotiboldiyev, “Dizayn asoslari”, O'quv qo'llanma, T.:Iqtisod-moliya, 2010

### **Интернет сайтлари**

13. [www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)
14. [www.textileclub.ru](http://www.textileclub.ru)
15. [www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)

## Mundarija:

1	Texnikani buyuk ihtirolar va kashfiyotlari tarixidan _____	3
2	O'rta asr xunarmandchilik _____	6
3	Evropada sanoat inqilobi _____	8
4	XIX asr oxiri. Shakllantirish yagni falsafani tug'ilishi _____	10
5	XIX asr oxiri. Birinchi dizayn nazariyalari _____	13
6	XX–XXI asr chegarasida Evropada yangi badiiy uslub _____	15
7	Ilk amerika funksionalizmi _____	17
8	Evropada birinchi funksionalizm g'oyalari _____	21
9	XX asr boshida san'atda badiiy yo'nalishlar _____	23
10	20 - 30 yy. Dizaynini birinchi maktablari. BAUXAUZ 1919-1933 y. _____	25
11	VXUTEMAS VA VXUTEIN (1920-1930) _____	29
12	Ikkinchi jahon urushdan oldingi uslubiy yo'nalishlar _____	33
13	Butun jahon inqirozi _____	35
14	Urushdan oldingi dizayn _____	37
15	Urushdan keyingi dizayn _____	39
16	Neofunksionalizm _____	40
17	Postindutrial madaniyat dizayni _____	42
18	O'zbekiston dizayn maktabi _____	44
	Tayanch iboralarning izohli lug'ati _____	46
	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari _____	49
	Mundarija _____	50



